

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**MILLIY G`OYA, MA`NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI
KAFEDRASI**

XAMIDOV JAHONGIR

**O'ZBEKİSTONNING MARKAZIY OSIYO MAMLAКАTLARI BILAN
GEOSIYOSIY ALOQALARIDA IQTISODIY OMILNING O'RNI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar; dots T.f.n.,

Talapov Bahriiddin Alijonovich

Namangan – 2018

Kirish.....	3-13
I Bob. O’zbekiston Respublikasining geosiyosiy o’rni va geoiqtisodiy imkoniyatlari.....	14-47
1.1 O’zbekistonning geosiyosiy o’rni va muammolari.....	14-23
1.2 O’zbekistonning geoiqtisodiy imkoniyatlari.....	24-47
II Bob O’zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarining geoiqtisodiy aloqalarining asosiy yo’nalishlari va hamkorlik istiqbollari.....	48-72
2.1 O’zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarining geoiqtisodiy hamkorligi: natija va muammolar.....	48-61
2.2 Markaziy Osiyoda shakllanayotgan yangi iqtisodiy tuzilmalarning vujudga kelishi va istiqbollari.....	62-72
Xulosa.....	73-75
Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yhati.....	76-79

Kirish.

Mavzuning dolzarbliji. Erkin demokratik jamiyat barpo etishni bosh maqsad qilib olgan va taraqqiyoti ijtimoiy hamkorlikka asoslangan davlatlardagi xalqlarning milliy g`oyasi va mafkurasi odamlarni ezgu maqsad yo`lida birlashtiradi. Hozirgi globallashuv sharoitida dunyoda turli xil maqsad-manfaatlarni ifoda etuvchi mafkuralar kurashi to`xtagani yo`q. Bu kurashdan ko`zlangan asosiy maqsad – inson, avvalambor yoshlar qalbini egallah, uni o`z dunyoqarashiga bo`ysundirish, ma`naviy jihatdan zaif va tobe qilishdir. Mafkuraviy poligon deb, odamlarning qalbi va ongini egallahga qaratilgan g`oya yoki mafkurani ham mablag`, ham zamonaviy texnikaviy vositalar bilan kuchlantirib, moddiy va ma`naviy qurollarni ishga solib, dunyodagi axborot va fikr oqimini o`z manfaatlari yo`lida boshqarib turgan, muayyan niyatiga yetish uchun ishlatiladigan va bu borada xilma-xil tarzda namoyon bo`ladigan harakatlarni amalga oshiradigan g`oyaviy markazga aytildi.

I.A.Karimov ta`kidlaganidek “bugungi kunda inson ma`naviyatiga qarshi yo`naltirilgan, bir qarashda arzimas bo`lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko`zga ko`rinmaydigan lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo`lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin”¹.

O`zbekistonning milliy g`oya va mafkurasi mamlakatimizning mana shu mintaqada, yon-atrofdagi davlatlar orasida va jahon miqyosida o`ziga munosib o`rnini, yana ham aniqroq aytadigan bo`lsak, o`zining imkoniyatini to`g`ri va holisona anglab, shu asosda izchil harakat qilishi uchun xizmat etishi zarur.

Mustaqillikning e`lon qilinishi Respublika tarixida muhim voqeа bo`lib, u nafaqat butun davlat uchun, balki O`zbekistonda yashaydigan har bir aholi uchun katta ahamiyat kasb etdi. Ko`pincha mustaqillikka qon to`kishlar yo`li bilan erishiladi. Lekin O`zbekiston bunday yo`ldan bormadi. XXI asr arafasida

¹ Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent: Ma`naviyat, 2008.-B.11.

jahon xaritasida yana bir mustaqil, teng huquqli davlat - O'zbekiston paydo bo'ldi. Jahon hamjamiyati uni tezda tan ola boshladi.

I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Mustaqillik yillarida bosib o'tgan yo'limiz va to'plagan tajribamizni holisona baholash, qo'lga kiritgan yuksak marralarimizni tahlil etish mamlakatimizni tadrijiy va bosqichma-bosqich rivojlantirish bo'yicha biz tanlagan modelning naqadar to'g'ri ekanini va shu yo'ldan bundan buyon ham og'ishmay qat'iyat bilan borishimiz zarurligini yaqqol ko'rsatmoqda"¹.

Mustaqil demokratik respublikaning tashkil topishi jahonshumul tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Xalqning asrlar davomidagi mustaqillik uchun kurashi ro'yobga chiqib, mamlakatda huquqiy, demokratik jamiyat shakllanishiga shart-sharoit yaratildi. O'zbekistonning boy imkoniyatlaridan xalq turmushini yaxshilash uchun foydalanish mumkin bo'ldi.

O'zbekistonni Birinchi Prezidenti o'zining chiqishlarida oldimizda turgan ustuvor vazifalar haqida shunday degan edi: "... Bugungi murakkab, ziddiyatlil, turli larzalar chiqib turgan va mojarolar bo'lib turgan vaziyatda ziyojolarimizning oqilona so'zlari, xayrli ishlari odamlar va xalqlar o'rtaida insonparvarlik va ma'naviy normalarni saqlab qolishda eng muhim shartdir"².

Mustaqil O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishda har xil salbiy holatlar tug'diradigan yo'llar bilan emas, asta-sekinlik bilan o'tish yo'lini tanladi. Istiqlolga erishgan xalqimiz jahon minbarida o'z manfaatlari haqida bor ovoz bilan gaphirish, xalqaro tashkilotlar ishida faol qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldi. Eng asosiy natijalardan yana biri-xalqning tarixiy merosini o'rganish, ma'naviy qadriyatlarini tiklash imkonini tug'ildi. O'zbekistonda mustaqillik sharoitida siyosiy va iqtisodiy qayta qurishlar amalga oshirila boshlandi, birinchi navbatda mustaqil davlatning huquqiy asoslari yaratildi.

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривоҷлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси.-Тошкент: Ўзбекистон, 2010.-Б.7-8.

² Karimov I.A. O'zbekiston mustaqilikka erishish ostonasida.-Toshkent: O'zbekiston, 2011.-B.89.

XX asrning oxirgi o'n yilligi insoniyat tarixiga buyuk o'zgarishlar davri bo'lib kiradi, chunki yer yuzida vaziyat, kuchlar nisbati keskin o'zgarib, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan SSSR va AQSh yetakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy blok barham topdi. Lekin endilikda sovuq urushlar munosabatlarini tug'diradigan kuchlarning yangi o'choqlari vujudga kelmoqda. SSSRning parchalanishi va sotsialistik sistema halokati natijasida dunyoda yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi.

Mustaqil O'zbekiston xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yishi va o'z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay geografik-strategik imkoniyatlarga ega. O'rta Osiyoda geografik-siyosiy jihatdan markaziy o'rin tutgan O'zbekistonning ushbu mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, barqarorlikni ta'minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlari bor.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lni belgilash; jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifalar deb belgilandi. Chunki ittifoq davrida O'zbekiston to'g'ridan-to'g'ri aloqa qila olmaydigan mamlakat bo'lib, tashqi siyosat yuritish tajribasiga hamda bu sohadagi kadrlarga ega emas edi.

I.A. Karimov o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» kitobida mustaqil tashqi siyosatini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida mamlakatimiz tashqi siyosatining qoidalari qonunlashtirildi¹. Bu qoidalalar «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida»gi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi hujjatlarda o'z ifodasini topdi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -Toshkent: O'zbekiston, 2016.

SH.M.Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasini 72 (2017) sessiyasidagi nutqlarida mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining bosh yo'nalishlari belgilab berildi. O'zbekiston bugungi kunda o'zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu – har tomonlama chuqur o'ylab tanlangan yo'ldir. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O'zbekiston ushbu mintaqaga barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir. Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir.

O'zbekiston o'zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlashning qat'iy tarafdoridir. Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hech istisnosiz barcha masalalar bo'yicha oqilona murosa asosida hamkorlik qilishga tayyormiz. Birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz tufayli keyingi oylarda mintaqamizda siyosiy ishonch sezilarli darajada oshdi. Ko'plab masalalar bo'yicha prinsipial jihatdan muhim yechimlar topishga erishildi. 2017 yilning sentyabr oyining boshida O'zbekiston – Qirg'iziston davlat chegaralari to'g'risidagi shartnoma imzolanishi tom ma'noda muhim voqeа bo'ldi. Tomonlar o'z siyosiy irodasini, o'zaro maqbul qarorlar qabul qilishga tayyor ekanini namoyon etgani tufayli o'tgan yigirma olti yil davomida birinchi marta ushbu g'oyat nozik masala bo'yicha katta natijaga erishildi. Bir so'z bilan aytganda, o'tgan qisqa vaqt mobaynida mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratishga erishildi.

Bu tendensiyaning mustahkamlanishi Markaziy Osiyo davlatlari Prezidentlari muntazam uchrashuvlar o'tkazishi uchun imkoniyat yaratgan bo'lur edi, deb hisoblayman. Biz noyabr oyida Samarqandda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligidagi o'tkaziladigan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik"

mavzusidagi yuqori darajadagi xalqaro anjumanda mintaqadagi fundamental muammolarni muhokama qilishni rejashtirganmiz¹.

O`zbekiston hukumati respublika tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- mafkuraviy qarashlardan qat`iy nazar hamkorlik uchun ochiqliq, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va havfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- nizolarni tinch yo`l bilan hal qilish;
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e`tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi;
- davlatning, xalqning oliv manfaatlari, farovonligi va havfsizligini ta`minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo`stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;
- tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;
- davlatlararo aloqalarda teng huquqlik va o`zaro manfaatdorlik davlat milliy manfaatlarining ustunligi;
- tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko`p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik².

Izchil amalga oshirilayotgan islohotlar haqida: "...Ma`muriy-buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o`tish jarayonida tadrijiy yondashuvni, "Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzmang" degan hayotiy tamoyilga

¹ O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh ssamblyasining 2- sessiyasidagi nutqini o`rganish bo`yicha ilmiy- ommabob risola(Matn) .-T.: "Ma`naviyat",2017.-B.5.

² O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T.: O`zbekiston, 2016.

tayangan holda, islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo`lini tanladik"¹.-degan edi I.A.Karimov.

Tashqi siyosatdagi ochiq-oydinlik teng huquqlilik demokratik prinsiplariga sodiqlik umuminsoniy qadriyatlarini ulug`lash, respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta`sir qilish bilan birga O`zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatida mavqeini ham oshirib bormoqda.

O`zbekiston tashqi siyosatining muhim yo`nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar - Qozog`iston, Qирг`изистон, Тоҷикистон, Туркманистон bilan hamkorlik qardoshlarcha do`stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. Qardosh xalqlarning tarixi, madaniyati, urf-odatlari, an`analari, turmush tarzi va boshqa ko`pgina tomonlari bir-biri bilan chambarchas bog`liq. Bugungi kunda ham bu davlatlarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalari, ekologik muammolari o`zaro aloqalarni kuchaytirishni talab qiladi. Shularni hisobga olib 1994 yil 10 yanvarda O`zbekiston Respublikasi bilan Qozog`iston Respublikasi o`rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o`tib turishini nazarda tutuvchi hamda o`zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, byudjet, soliq, narx, boj va valyuta siyosatini ta`minlovchi yagona iqtisodiy makonni tashkil etish to`g`risida shartnomaga imzolandi. Bu shartnomaga Qирг`изистон, keyinchalik Тоҷикистонning ham kirishi О`рта Осиyo mintaqasida iqtisodiy integratsiya jarayonining chuqurlashuviga katta imkoniyat yaratdi. Kelishuvda qatnashgan mamlakatlar vakillarining davlatlararo ijroiya qo`mitasi Almati shahrida joylashgan bo`lib, Toshkent shahrida hududiy Markaziy bank faoliyat ko`rsatmoqda. Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va havfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahon miqyosida mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta`minladi. O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi 165 davlat tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatik

¹ Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иктисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари.- Тошкент: Ўзбекистон, 2009.-Б.7.

siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o`rnatildi. Toshkentda 35 mamlakatning elchixonasi ochildi. Bular AQSh, Turkiya, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqa rivojlangan mamkatlardir. Shuningdek O`zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko`rsatmoqda. Dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarda O`zbekistonning elchixonalari ishlab turibdi¹.

O`zbekiston jahon iqtisodyotiga integratsiyalashish yo`lidan borib Jahon banki, Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko`maklashuvchi tashkilot va boshqa moliyaviy iqtisodiy tashkilotlarga a`zo bo`lib kirdi va ular bilan hamkorlik qilmoqda. Shu bilan birga O`zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar-Jahon sog`liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, BMTning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, elektr aloqasi bo`yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro olimpiada qo`mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Ularning vakolatxonalari respublikamizda ochildi va faoliyat ko`rsatmoqda.

O`zbekiston ko`pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, Yevropa Ittifoqi, NATO, EKO, Islom konferentsiyasi, qo`shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda. I. A. Karimov 1999 yili aprelda Shimoliy Atlantika Ittifoqi qoshidagi «Tinchlik yo`lida hamkorlik» dasturining a`zosi sifatida NATO ning 50 yillik yubiley tantanalarida qatnashdi. O`zbekiston O`rta Osiyo davlatlari bilan Turkiya, Pokiston, Eron tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a`zo bo`lib kirdi va Trans Osiyo temir yo`lini qurilishida faol ishtirok etmoqda. Bu O`zbekiston uchun dengiz yo`llariga, xalqaro

¹ Муртазаева Р.Х. Ўзбекистон тарихи.-Тошкент: Университет, 2008.-Б.55.

transport tarmog`iga, tovar va kapital xalqaro bozoriga chiqish imkoniyatini berdi¹.

Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat emas, intellektual salohiyat, aql-idroq, fikr, ilg`or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bizning siyosatimizning bosh yo`nalishini O`zbekiston havfsizligi tashkil etadi. Albatta, hozirgi turmushimiz biz orzu etgan darajada emas. Hali yetishmovchiliklar, qiyinchiliklar va yo`limizda to`sqliar ham oz emas. Ammo shunday murakkab bir vaziyatda odamlar omonligi, mamlakatimiz tinchligini ta`minlashga erishayotganimiz, bizning eng katta yutug`imizdir.

Bugungi kunda xalqaro siyosat Markaziy Osiyoda voqealar qanday rivojlanishiga ko`p jihatdan bog`liq ekanligi ayon bo`lib qolmoqda. Hayotning o`zi, I.A.Karimovning «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida qayd etilgan «say-yoramizning juda katta maydonida kuchlar nisbati ko`p jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil mamlakatlar qaysi yo`ldan borishlariga bog`liq»,² degan fundamental xulosasini tasdiqladi.

O`zbekistonning barcha rivoj topgan xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalari kengayib bormoqda.

Shu bois mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo geosiyosatining o`ziga xos jihatlari masalasini har tomonlama chuqur o`rganish va tahlil qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Mavzuning o`rganilish darjasи. Mustaqillik yillariga qadar Markaziy Osiyo geosiyosatining o`ziga xos jihatlari masalalariga oid tadqiqotlar deyarli o`tkazilmagan edi. Chunki buni iloji ham yo`q edi. Bu borada tadqiqotlar o`tkazish masalasi esa bugunga kelibgina paydo bo`ldi.

¹ Миллий истиқлол ғояси. Маъruzalар матни.-Наманган: 2010.-Б.45.

² Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-Toshkent: O`zbekiston, 1997.-B.8.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugun Markaziy Osiyo geosiyosatining o'ziga xos jihatlari masalasiga ob'ektiv holisona baho berish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu o'rinda siyosatshunos olimlarimizning xizmatlari beqiyosdir¹.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu masala ilk bor I.A.Karimovning asarlarida o'rtaga tashlandi. U o'zining bir qator maqola va risolalarida bu boradagi fikrlarini bildirib o'tdi². Olimlardan A. Azizzxo'jaev³, R. Hakimov⁴, M. Lafasov⁵, X. Murodov, N. Muxammadiyev, G. Jamolov⁶, A.X. Saidov⁷, I. Sobirov, S. Safaev, F. Otaxonov, O. Oqilov, F. Kim, M. Tillabayev⁸ kabi olim va siyosiy arboblarning ishlarida o'z aksini topgan.

Mavzu tarixshunosligi tahlili shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo geosiyosatining o'ziga xos jihatlari masalasining ayrim jihatlari bir qator olimlarning ilmiy maqola va risolalarida qisman yoritilgan bo'lsada, u alohida ilmiy tadqiqot ob'ekti bo'lmagan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo geosiyosatining o'ziga xos jihatlari masalasini tahlil qilib beradigan biron ta'kid qilingan emas. Vaholanki, Markaziy Osiyo geosiyosatining o'ziga xos jihatlari bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ushbu mavzuga oid asarlar tahlili kam o'rganilgan muammolarni aniqlab, ularni yoritishga yangicha yondashuv lozimligini ko'rsatadi. Bu yondashuv Markaziy Osiyo geosiyosatining o'ziga xos jihatlari masalasining barcha ko'rinishlari bilan birgalikda tahlil qilish, uning rivojlanish jarayonini o'rganish bilan belgilanadi.

¹ Safoev S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat.-Toshkent: JIDU, 2008.-160 b.; Алимов Р.М. Центральная Азия: общность интересов. – Ташкент: Шарқ, 2005.-56c.

² Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.- Toshkent: O'zbekiston, 2000.-B.34.; Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari.-Toshkent: O'zbekiston, 1997.-B.140-141.; Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q //Muloqot.-1998.-№5.-B.13.

³ Demokratiya xalq hokimiyyati demakdir. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.-B.256.

⁴ Demokratiya xalq hokimiyyati demakdir. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.-B.256.

⁵ O'zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari. – Toshkent: O'zbekiston, 1995.- B.314.

⁶ O'zbekiston jahon hamjamiyati safida. – Toshkent:, 2000.- B.248.

⁷ Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. To'plam /O'zbekcha nashri – Toshkent: Adolat, 2004.- B.144.

⁸ O'zbekiston: Barqarorlik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning va inson taraqqiyoti prinsplarini amalga oshirishning parlament tomonidan ta'minlanishi. Amaliy qo'llanma. 2011.-B.132.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi Markaziy Osiyo geosiyosatining o'ziga xos jihatlari, avvalo O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan geosiyosiy aloqalar iqtisodiy omilning o'rmini tadqiq qilishdan iborat.

Mazkur ishning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosati va iqtisodiyotida tutgan o'rmini o'rganish va uni geosiyosiy sube'kt sifatidagi rolini yoritish;
- Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy integratsiya masalalarini tahlil qilish hamda ushbu jarayondagi O'zbekistonning startegik rolini aniqlash;
- Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan boy tabiiy zahiralar atrofida kechayotgan turli siyosiy va iqtisodiy manfaatlar to'qnashuvining obe'ktiv va sube'ktiv omillarini tahlil etish;

Mavzuning ahamiyati. Mazkur ish natijalaridan Oliy o'quv yurtlarida "Siyosatshunoslik", "O'zbekistonda Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti", "O'zbekiston tashqi siyosati", "Xalqaro munosabatlar", "Qiyosiy siyosatshunoslik", "Siyosiy konfliktologiya", "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" kabi fanlarning mavzuga oid ma'ruzalarini o'qitishda, ijtimoiy gumanitar yo'nalishdagi fakultetlarda geosiyosat masalalarini o'rganishda qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

Umuman olganda, bizning nazarimizda, Markaziy Osiyoning noyob xususiyatlaridan biri - bu mintaqada regional omilning juda katta ahamiyatga egaligidir. Markaziy Osiyodagi muayyan mamlakatning rivojlanish tendensiyalarini mintaqadagi rivojlanishga bog'lamasdan chuqur geosiyosiy va iqtisodiy tahlil qilish mumkin emas. Xuddi shuningdek, Markaziy Osiyodan tashqaridagi muayyan davlatning mintaqadagi u yo bu davlatga nisbatan tashqi

siyosatini uning butun Markaziy Osiyoga nisbatan bo‘lgan regional siyosatini tushunmay turib anglab yetish mumkin emas.¹

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

¹ Сафоев С.С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. “Патент пресс” –Т.: 2005. – Б.6-7.

I Bob. O'zbekiston Respublikasining geosiyosiy o'rni va geoiqtisodiy imkoniyatlari.

1.1 O'zbekistonning geosiyosiy o'rni va muammolari.

Markaziy Osiyo atrofida kechayotgan jadal geosiyosiy jarayonlar mazkur mintaqaning yuksak geosiyosiy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat bermoqda. Zero, mintaqa havfsizligi ko'p jihatdan uning geosiyosiy ahamiyati, salohiyatini belgilovchi jo'g'rofiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Shu o'rinda Z.Bzejinskiyning "ushbu mintaqada ustunlikni kim qo'lga kirlitsa, shubhasiz geosiyosiy va iqtisodiy yutuqni qo'lga kiritadi", degan fikrini eslash o'rinlidir¹.

Tarixiy taraqqiyot davomida uzlusiz davom etib kelgan tamaddunlar kurashi yangi ming yillikda, turli xil ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Yer yuzida yagona hukmronlik tizimini yaratish uchun olib borilgan bu kurash bir oz bo'lsa-da susaygani yo'q. Amerikalik olim S.Xantington "Sivilizatsiyalar to'qnashushi va dunyo tartibotining qaytadan qurilishi" asarida so'nggi yillarda yer yuzida kechayotgan geosiyosiy jarayonlarning eng muhim xususiyatlarini tahlil etar ekan, mazkur jarayonlar aynan Yevroosiyo qit'asi, xususan, shu qit'a markazida joylashgan "o'zak mamlakatlar"ga ta'sir etish va ular hududini egallash maqsadida ro'y berayotganini ta'kidlaydi². Xo'sh, Markaziy Osiyo mintaqasi ushbu geosiyosiy jarayonlarga nisbatan qanday masofada joylashgan? Ushbu masala bugungi kunda Markaziy Osyoning geosiyosiy mavqeい hamda uning atrofida jadallik bilan kechayotgan geosiyosiy jarayonlarning tub mohiyatini anglashga yordam beradi.

Mintaqaning geosiyosiy mavqeini o'rganish bir necha omillar xususida fikr yuritishni talab etadi. Mumtoz geosiyosiy nazariyaga ko'ra, har bir mintaqaning geosiyosiy mavqeい quyidagilar bilan belgilanadi:

- geografik joylashuvi va tabiiy-iqlim xususiyatlari;

¹ Бжезинский З. Великая шахматная доска.- Москва: 1999.- С.168.

² Хантингтон С. Столкновение цивилизаций и переустройство мирового порядка // "Полис", 1994.-С.33.

- iqtisodiy salohiyati;
- shu hududda yashovchi xalqlarning qat'iy ravishda tabiiy-geografik omillar ta'siri ostida shakllangan mentaliteti hamda an'analari;
- ushbu xususiyatlardan ta'sirida shakllangan siyosiy tuzumning tabiatini.

Biroq o'tgan yuz yillikda mintaqalar yoki davlatlarning geosiyosiy mavqeい ko'pgina hollarda iqtisodiy omil bilan belgilangan edi. Bu hol, avvalo, dunyoda energetika zahiralari iste'molining kuchayishi va ularga bo'lган ehtiyojning keskin ortib ketishi bilan izohlanadi. Markaziy Osiyoning iqtisodiy salohiyati bu mintaqaga nisbatan geosiyosiy qiziqishning asosiy manbai ekanini nazardan qochirmagan holda ilmiy nuqtai - nazardan uning ayrim muhim xususiyatlari xususida to'xtalib o'tamiz.

Geosiyosiy nazariy qoidalarga ko'ra, avvalo Markaziy Osiyoning jo'g'rofiy o'lchamlari to'g'risida fikr yuritish maqsadga muvofiq. Zero, mintaqaning hududiy joylashuvi va ko'rsatkichlari, uning geosiyosiy imkoniyatlari hamda tabiiy strategik salohiyatini belgilab beruvchi muhim omillardir. Yevroosiyo mintaqasida asrlar davomida kechayotgan geosiyosiy jarayonlar ham ilmiy-nazariy, ham amaliy jihatdan uning markaziy qismini egallashga yo'naltirilganini ko'rsatadi¹. Ayrim manbalarga qaraganda, yerning ushbu (ya'ni yurak) qismi Markaziy Osiyonini ham o'z ichiga oladi. Albatta, bu mintaqada aynan "yurak"ning markazini tashqil etmasa-da, "yurakka boradigan ba'zi o'q tomirlar" ana shu hudud orqali o'tgan. Buni Markaziy Osiyo tarixiga nazar tashlagan holda ushbu hududda xukmronlik uchun bo'lib o'tgan son-sanoqsiz urushlar, hozirga qadar davom etib kelayotgan shiddatli jarayonlardan ham anglash mumkin².

Rus geosiyosiy tadqiqotchilaridan A.Duginning ta'rifiga ko'ra, Markaziy Osiyo hududi g'arbda Kaspiydan boshlab Shimoli-Sharqda Oltoy o'lkasiga qadar, shimoldan Shimoliy Qozog'iston va yana yuqoriqoqdagi ayrim Rossiya

¹ "Элементы. Евразийское обозрение". 1996, №7,-С. 26 –31.

² НАТО и Центральная Азия. <http://www.transcaspian.ru/cgi-bin/web.exe/rus/4644.html>.

guberniyalaridan janubda Pokistonga qadar hududni egallaydi¹. Garvard universitetida (AQSh) joylashgan Markaziy Osiyon o‘rganuvchi yirik markazlardan biri “The Harvard Programme on Central Asia” o‘zining internet saytida Markaziy Osiyo xaritasini joylashtirgan².

Boshqacha aytganda, Markaziy Osiyo xaritasi ushbu markazning rasmiy belgisi hisoblanadi. Bunga ko‘ra, Markaziy Osiyo Eronning sharqiy hududlari, Xitoyning ayrim g‘arbiy provinsiyalarigacha cho‘zilgan. Ko‘pgina g‘arb tadqiqotchilar ham Markaziy Osyoning jo‘g‘rofiy o‘lchamlari to‘g‘risida shunga yaqin fikr bildirishadi. Bugungi kunda Markaziy Osyoning geosiyosiy ahamiyati keskin oshib borayotgan va tashqi ta’sir kuchayayotgan bir paytda uning jo‘g‘rofiy o‘lchamlarini turli darajada ko‘rsatish mintaqaga kirib kelayotgan kuchlarning strategik manfaatlariga bog‘liq. Markaziy Osyoning o‘lchamlari A.Gumbolt davriga kelib ancha-muncha aniq shaklga ega bo‘la boshlagan bo‘lib, qit’aning ichki qismi Markaziy Osiyo, deb atalgan. O‘rtal Osiyoning Kaspiy dengiziga borib taqalgan g‘arbiy qismining janubiy chegaralari xususida olimlar hanuzgacha yagona fikrga kelmagan.

Geosiyosiy nazariyaning muhim shartlaridan biri – mintaqalarning jo‘g‘rofiy xususiyatlari, xususan, yer yuzasi, tuproq tarkibi, suv havzalari yoki tog‘larga yaqinligi kabi omillarni sinchiklab o‘rganish orqali shu hududdagi xalqlar va davlatlarning siyosiy tabiatiga baho berishdan iborat. Chunki davlatlar va elatlar hududdagi jo‘g‘rofiy va tabiiy sharoit, shuningdek, zaminning xususiyatlariga uзвиy bog‘liq holda shakllanishi to‘g‘risidagi qoida ushbu fanning negizida yotadi. Shu o‘rinda Markaziy Osyoning jo‘g‘rofiy va tabiiy xususiyatlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Markaziy Osiyo g‘arbda Kaspiy dengizidan sharqda Xitoyning Shinjon muxtor tumaniga qadar, Shimolda Qozog‘istonidan to Pokistonga qadar hududni egallagan ulkan jo‘g‘rofiy birlik bo‘lib, Yevroosiyo tekisligining markaziy

¹ Дугин А. Основы Геополитики. “Арктоя” –Москва: 1997.-С. 353 – 364.

² <http://www.fas.harvard.edu-centasia>

qismini o‘z ichiga olgan 4 mln. kv. kmlik ulkan hududni egallaydi. Rossiya, Eron va Xitoy kabi geosiyosiy nuqtai nazardan muhim davlatlar bilan chegaradosh bo‘lgan mintaqada 95 million atrofida aholi istiqomat qiladi.

Asosiy hududi tekislik va pasttekisliklardan iborat bo‘lgan mintaqaning iqlimi ko‘proq kontinental, mo‘tadil, ayrim tog‘li hududlarda arktik xususiyatga ega. Mintaqaning ko‘pgina qismi qumli cho‘llar hamda tekisliklardan iborat bo‘lsa-da, yerlarning qariyb to‘rtdan biri xosildor yerlar hisoblanadi. Tabiiy iqlim sharoitlariga ko‘ra, mintaqaning juda qulay ekanini ta’kidlash zarur. Turkmaniston va Qozog‘iston asosan cho‘l, yarim cho‘l, tekisliklar va pasttekisliklardan iborat. Yillik yog‘in miqdori Shimoliy va markaziy tekislik hududlarda - 300 mm, cho‘llarda - 100 mm, tog‘li hududlarda esa - 600 mm ni tashkil etadi. Qishning eng past harorati Shimoliy hududlarda -18[□] janubda esa 0% atrofida, yozning eng yuqori harorati esa Shimoliy hududlarda +28, eng janubda esa +44% ni tashkil etadi.

O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston asosan Farg‘ona, Zarafshon, Vaxsh, Kofarnikon va boshqa serhosil vodiy va vohalardan iborat. Qirg‘iziston va Tojikistonda tog‘li hududlar ushbu respublikalar umumiy maydonining 35-60% ni (Pomir va Tyan-shan) tashkil etadi. Mintaqha hududiy jihatdan asosan tekisliklardan iborat bo‘lib, Kaspiy hamda Orol dengizlari ham ushbu mintaqada joylashgan. Tog‘li hududlar bo‘lsa – Pomir va Tyanshan, shuningdek, ularning etaklarida joylashgan bir necha tog‘ tizmalaridan iborat.

Suv zahiralari Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng muhim geosiyosiy omillaridan biri hisoblanadi. Suv yo‘llari asosan Amudaryo va Sirdaryo, shuningdek, o‘nlab kichik daryo hamda o‘zanlardan iborat. Garchi Qozog‘istonning Shimoli-g‘arbiy va Shimoli-sharqiy qismida Ural va Irtish kabi yirik daryolar mavjud bo‘lsa-da, ulardan nafaqat mintaqaning, balki Qozog‘istonning qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun ishlatalish imkoniyati mavjud emas. Har bir respublika hududida yuzlab kichik daryolar mavjud bo‘lib

ularning ma'lum bir qismi yoz oylarida qurib qoladigan mavsumiy daryolar hisoblanadi¹.

Shuni ta'kidlash kerakki, Markaziy Osiyoning suv zahiralari kam bo'lishi bilan birga ularning taqsimotida jiddiy muammolar mavjud. Mintaqaning eng yirik daryolari hisoblangan Amudaryo va Sirdaryoning yillik suv oqimi 78 km³ va 36 km³ ni tashkil etadi. Mintaqadagi ichimlik suvi zahiralari asosan tog'lardagi qorlar va muzliklardan tashkil topgan. Daryolarning aksariyati Tojikiston va Qирғизистондаги tog'lardan boshlanadi va qolgan barcha respublikalar bilan birgalikda iste'mol qilinadi. Bu esa suv taqsimoti masalasida o'zaro muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlar va muntazam nazoratni talab etadi. Suv bilan bog'liq bo'lgan boshqa muammo – Irtish bilan bog'liq bo'lib, Xitoydan boshlanadigan ushbu daryo Rossiyaning Ob daryosiga kelib quyiladi. Daryo ustida qurilgan Xitoya tegishli dambalar Irtishbo'yи ekotizimiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri Qozog'istonni tashvishga solayotgan masalalardan biridir.

Mintaqada Turkmaniston va Qozog'iston hududida Kaspiy dengizi, O'zbekiston va Qozog'iston hududida Orol dengizi va Qирғизистон hududida Issiqko'l mavjud bo'lib, ular atrofidagi muammolar mintaqadagi deyarli barcha mamlakatlarlarni qamrab oladi. Masalan, Kaspiyning dengiz yoki ko'l ekanı borasida ham biror bir yagona yechimga kelinganicha yo'q. Ushbu masala Kaspiybuyidagi davlatlarning geosiyosiy strategiyasiga bog'liq holda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan muhim mintaqaviy masala hisoblanadi. Shuni aloxida ta'kidlash kerakki, Kaspiy maqomi masalasi uning suv resurslari bilan emas, balki ko'proq uning tubidagi qazilma boyliklarning taqsimotiga borib taqaladi. Orol muammosi ham butun mintaqa ekotizimiga ta'sir ko'rsatayotgan jiddiy mintaqaviy muammo bo'lib, uning bartaraf etilishi mintaqadagi davlatlarning o'zaro izchil hamkorligini talab etmoqda. Mintqa axolisining yarmidan

¹ Чжен Кун Фу. Геополитика Казахстана. -Алматы: Жеты Жарғы. 1999. -С. 158.

ko‘prog‘i (35 mln. kishi) Orol muammosi ta’sirida qolgan. Ushbu muammo XX asrda yer yuzida ro‘y bergan eng mudhish ekologik falokat bo‘lgani tufayli uni bartaraf etishga nafaqat mintaqa davlatlari, balki butun jahon hamjamiyati jalb etilgan.

O‘zbekiston dunyo hamjamiyati va siyosiy xaritasida o‘ziga xos mavqega ega. U hozirgi kunda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lgan 196 davlatdan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi BMTga 2-mart 1992-yilda qabul qilingan¹.

O‘zbekiston Yevrosiyo va Markaziy Osiyoning deyarli qoq o‘rtasida joylashgan. Respublika hududi g‘arbdan sharqga 1425 kmga cho‘zilgan, shimoldan janubgacha masofa esa 930 km. Eng baland nuqtasi Hazrat Sulton cho‘qqisi (Hisor tizmasi) dengiz sathidan 4643 m balandlikda, eng past nuqtasi Mingbuloq botig‘i -12 m.

Davlat shegaralarining umumiy uzunligi 6221 km bo‘lib, shundan 2203 km yoki 1/3 qismi Qozog‘iston Respublikasiga, 1721 km Turkmanistonga, 1161 km Tojikistonga, 1069 km Qirg‘izistonga va 137 km Afg‘oniston Respublikasiga to‘g‘ri keladi².

O‘zbekistonning mikroiqtisodiy geografik o‘rni (hududning o‘ziga qo‘shni bo‘lgan davlatlarga nisbatan tutgan o‘rni) ancha qulayligi bilan xarakterlanadi. Bu holat, avvalo, uning Markaziy Osiyo respublikalarining qoq o‘rtasida joylashganligi va barcha mintaqa davlatlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri chegaradoshligi tufayli kelib chiqadi. O‘zbekistonning mikro IGO‘ qulayligi qo‘shni respublikalar bilan barcha turdagи quruqlik transport (avtomobil, temiryo‘l, quvur) tuzilmalari bilan nisbatan yaxshi bog‘langanligida ham o‘z ifodasini topadi. Mikro IGO‘dagi bunday qulayliklar tarixiy davrlardan hozirgacha O‘zbekistonni mintaqa davlatlari orasida aholisi eng zich, yirik shaharlarga boy, iqtisodiyoti nisbatan rivojlangan darajaga olib chiqqan.

¹ Xakimov R. “O‘zbekiston va BMT” -T.: O‘zbekiston, 1999.-B.8.

² Xakimov R. “O‘zbekiston va BMT” T.: O‘zbekiston, 1999.-B.5.

O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov «O`zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida bu borada quyidagi fikrni keltirgan: «O`zbekistonning hududiy makon xususiyatlari, uning geografik o'rni bizning ichki va tashqi siyosatimizni tanlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega... O`zbekiston bugungi kunda qo'shni davlatlar Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston o'rtasida bog'lovchi halqa vazifasini o'taydi. Bularning barchasi respublikaning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, chet el investitsiyalarini jalb qilish, O`zbekistonni davlatlar o'rtasida o'zaro foydali hamkorlikning, tovarlar va kapital tranzitining o'zida xos mintaqaviy markaziga aylantiradi».

O`zbekistonning bunday qulay iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlari har bir qo'shnilarini tomonidan aholisi zinch joylashgan tutash (kontakt) hududlarda (Farg'ona vodiysi, Zarafshon, Quyi Amudaryo mintaqalari, Surxondaryo viloyati) hozirgi davrda ko'plab turli ixtisosdagi respublikalararo hududiy ishlab chiqarish majmualari, qo'shma korxonalardan tortib erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilishgacha keng imkoniyatlar beradi. Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud bo'lган transchegaraviy daryolar va yo'llar muammolari hal etilishi respublika mikrogeografik o'rning yanada qulaylashuviga olib keladi.

Yaqin atrofida joylashgan davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston, Eron, Kavkaz respublikalariga nisbatan O`zbekistonning mezoijtisodiy geografik o'rni (yaqin mintaqalarga nisbatan tutgan o'rni) o'rtacha q'ulayliklarga egaligi bilan tavsiflanadi. Mezo IGO'ni bunday baholanishining sababi shundaki, O`zbekiston bir tomonidan, Kavkaz respublikalari, ayniqsa, Rossiya Federatsiyasi bilan, asosan, zamонави transport vositalari orqali samarali bog'langan va bu davlatlar bilan an'anaviy ravishda ko'p tomonlama yaqin aloqalar olib boradi. Jahon davlatlari orasida eksport-import aloqalari hajmiga ko'ra, Rossiyaning yetakehilik qilib kelayotganligi buning isbotidir. Ikkinchi

tomondan, janubda joylashgan va O'zbekistonning mezo IGO‘ guruh davlatlari toifasiga kiruvchi Afg'oniston, Eron davlatlari butun o'tgan tarixiy davrlar davomida respublikamiz bilan har tomonlama keng ijtimoiy aloqada bo'lib kelgan bo'lsa-da, hozirgi vaqtida bunday aloqalarni olib borishga mavjud texnik va siyosiy qiyinchiliklar to'siq bo'lib turibdi.

Davlatlararo iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarning yanada samarali natijalar berishi uchun jahonning uzoqroq mamlakatlari bilan bog'lanish, boshqacha aytganda, makrokengliklar talab etiladi. Ammo, dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqa o'rnatishda materik ichkarisida joylashgan davlatlar dengiz bo'yidagilarga nisbatan bir qancha noq'ulayliklarga duch keladi. O'zbekiston yaqin dengizlarga chiqishi uchun kamida ikki davlat hududini bosib o'tishiga to`g'ri keladigan jahondagi kamdan kam davlatlaridan biri boiganligi sababidan makroiqtisodiy geografik o'rni (jahon davlatlariga nisbatan tutgan o'rinni) nisbatan noqulaydir. Mustaqillik yillarda turli yo'nalishlarda O'zbekistonni dunyo okeani bilan bog`lovchi xalqaro yo'l loyihibarida faol ishtirok etishi mazkur holatni biroz yengillashtiradi.

O'zbekiston Respublikasining siyosiy geografik o'rni klassik geosiyosatchilar tomonidan ajratilgan Yevrosiyoning ichki kontinental qismi, ya'ni Xartlend (ingl. Heartland - "dunyoning yuragi"), hamda Yevrosiyoning janubi-g'arbiy dengizga yaqin mintaqasi Rimlend (Rimland "ichki yarim oy")ning o'zaro tutashgan hududda joylashganligi bilan tavsiflanadi. Bu holat esa jahonda yetakchilikni qo'lga kiritishni rejalashtirayotgan ko'plab davlatlarning respublikamizga nisbatan geosiyosiy qiziqishlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekistonning qulay transport geografik o'ringa egaligi, davlatimizning strategik resurslar hisoblanmish - neft, gaz, oltin, uran va boshqa ko'plab yerosti va usti boyliklariga egaligi, qulay tabiiy iqlim sharoiti, insoniyat tarixiy taraqqiyoti va sivilizatsiyasida salmoqli o'rinni tutishi, katta

demografik salohiyatning mavjudligi uning o'ziga xos geosiyosiy imkoniyatlarga egaligini ko'rsatib beradi.

Shu bilan birga, uning siyosiy geografik o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham mavjud. Xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm havfi, respublikamiz hududini narkotrafik yo'laklari sifatida foydalanishga harakat, global miqyosdagi ekologik muammolar, turli davlatlar orasidagi geosiyosiy raqobat, Afg'onistonidagi beqaror siyosiy vaziyat O'zbekiston mazkur geografik o'rin ko'rinishiga ta'sir etuvchi salbiy omillar bo'lib hisoblanadi. Mazkur salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida respublika rahbariyati tomonidan katta miqyosdagi ishlar amalga oshirilgan.

Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasiga yig'ilishlaridagi ma'ruzalarida jahon hamjamiyati diqqatini birinchi navbatda aynan Afg'oniston va Orol muammolariga qaratishga undagan edi. Respublikamizning Afg'oniston muammosini hal qilish bo'yicha "6+2" guruhidagi faoliyati qo'shni davlatda tinchlikni o'rnatish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yordam berishga qaratilgan. BMT rahbarlarining yurtimizga tashrifi chog'ida Orol dengizi muammosiga e'tibor qaratishlari natijasida u xalqaro ekologik muammolar qatoridan joy oldi hamda buning natijasida ushbu muammoga turli davlatlar e'tiborini jalb qilishga erishildi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi transchegaraviy daryolar, O'zbekiston-Qirg'iziston o'rtasidagi anklav (tegishli davlat hududining asosiy qismidan boshqa davlat hududi bilan ajralib turgan yerlar) va ba'zi chegara hududlari, Tojikiston bilan davlat chegarasida oxiriga yetkazilmagan delimitatsiya (chevara chizig'ini aniqlashtirib, mustahkamlash) ishlari bo'yicha yuzaga kelgan muammolar birinchi navbatda hal qilinishi lozim bo'lgan muhim geosiyosiy muammolardan bo'lib hisoblanadi.

Hududi yadroviy quroldan xoli bo'lgan, qo'shilmaslik siyosatini qo'llab-quvvatlovchi davlatga aylanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan

O‘zbekiston siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish, iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun qator davlatlar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Atrof qo‘snilardan tashqari, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy kabi davlatlar bilan yaqin aloqalar o‘rnatgan. Shu bilan birga SHHT, MDH kabi tashkilotlarning faoliyatida doimiy ishtirokchi hisoblanadi.

1.2 O'zbekistonning geoiqtisodiy imkoniyatlari

Ma'lumki, mintaqqa o'lkan xom ashyo zahirasiga ega. Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekistonda aniqlangan neft zahiralari yer yuzidagi butun zahiralarning tahminan 2,7 foizini, gaz zahiralari esa 7 foizini tashkil etar ekan. Turkmanistonda gazning ulkan zahiralari aniqlangan¹. O'zbekistonda 1 trln. AQSh dollari miqdorida neft va gaz zahiralari mavjudligi aniqlangan. O'zbekiston oltin zahiralari bo'yicha dunyoda to'rtinchchi o'rinda turgan davlat hisoblanadi, ishlab chiqarish bo'yicha esa 7 o'rinni egallaydi. Shuningdek, O'zbekistonda boshqa nodir metallarning yirik zahiralari mavjud.

Yer qa'ridagi temir rudasi zahiralaringning 8% Qozog'iston hududiga to'g'ri keladi².

O'zbekiston va Tojikistonda yirik uran rudasi konlari mavjud. Masalan O'zbekiston uran qazib chiqarish bo'yicha yer yuzida 7 o'rinda turadi. Paxta ham Markaziy Osiyoning katta boyligi hisoblanadi. Masalan, mintaqqa bo'yicha 1995 yilda terib olingan 5,9 mln. tonna paxta butun MDX hududida terilgan paxtaning 96%ni tashqil etadi. O'zbekiston paxta yetishtirish bo'yicha dunyoda 4-o'rinni, uni eksport qilish bo'yicha esa 2-o'rinni egallaydi.

Ana shunday ulkan imkoniyatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining jo'g'rofiy jihatdan noqulay shart-sharoiti, aniqrog'i, energetik zahiralarning iste'mol bozoridan uzoqda joylashgani hamda ushbu bozorga chiqish yo'llarining murakkab geosiyosiy harakteri tufayli mavjud geostrategik salohiyatdan foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Markaziy Osiyodagi davlatlarning birortasi ham ochiq dengizga chiqish yo'llariga ega emas.

¹ Джарффе Э. Распечатать богатства: энергоносители и будущее Центральной Азии и Кавказа // Центральная Азия 2010. Перспективы человеческого развития. Обзор Регионального Бюро Европы и СНГ, ПРООН.- Ташкент, 1997. - С.29.

² Суюмбаев М., Мамытова А. Природные ресурсы как фактор развития Центральной Азии // Центральная Азия и Кавказ.- 1998. - № 1.- С.-35.

Boshqacha aytganda, xozirgacha Markaziy Osiyoga asosan xavo yo‘llari orqaligina bemalol kirish mumkin. Mintaqaning Xitoy, Xindiston, Eron va Rossiya o‘rtasida joylashgani yetakchi davlatlarning ushbu hudud markaziga yo‘nalish uchun o‘ziga xos murakkabliklar tug‘diradi. Chunki tabiiy zahiralardan foydalanish, neft va gaz quvurlarini biror bir yo‘nalish orqali ochiv dengiz portlariga olib chiqish uchun bir nechta davlat hududidan o‘tish va buning uchun yetakchi transmilliy kompaniyalari bilan shartnomaga tuzgan holda amalga oshirishga to‘g‘ri keladi. Qolaversa, bunday loyihamar yetakchi davlatlar manfaatlarining to‘qnashuviga olib kelmagan taqdirdagina kutilgan samara berishi mumkin.

Ma'lumki, dunyodagi eng yirik neft va gaz zahiralari Kaspiy dengizi tubi va atrofida, ayniqsa, Tengiz va Qorachig‘anoq konlarida joylashgan. Shu bois dunyodagi yetakchi davlatlar bir necha yillardan buyon Kaspiy dengizi ostidagi neft zahiralarini o‘zlashtirish uchun keskin kurash olib borayotgani mintaqada atrofida turli “siyosiy o‘yin”lar uyushtirayotgani bu hududdagi vaziyatni izdan chiqarmoqda. Avval boshda Kaspiyning xalqaro mavqyei muammosi paydo bo‘lgan bo‘lsa, keyinroq uning “dengiz” yoki “ko‘l” ekanligini qaytadan belgilab olish masalasi ko‘tarildi. Undan keyin Kaspiy neft zahiralardan o‘zaro foydalanish bo‘yicha Qozog‘iston, Rossiya, Eron, Ozarbayjon va Turkmaniston o‘rtasida vujudga kelgan keskin vaziyat haligacha o‘z yechimini topgani yo‘q. 2002 yil may oyida Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan va muvaffaqiyatsiz yakun topgan Kaspiybo‘yidagi to‘rt davlat rahbarlarining uchrashuvini misol tariqasida keltirish mumkin. Ma'lumki, Eron Prezidenti tadbirlar tugamasidanoq Ozarbayjoni tark etgan, Rossiya Prezidenti esa jurnalistlarga bergen intervyusida boshqa ishtirokchilarni “zaif muzokarachi”lar (“слабые переговорщики”), deya ta’riflagan edi.

Xalqimiz mustaqillik deb atalmish ezgu va muqaddas orzuning ruyobga chiqishi uchun asrlar mobaynida intilib, kurashib keldi.

1991 yil 31 avgustdan boshlab xalqimiz taqdirida keskin burilish yasagan, butunlay yangi taraqqiyot davrini boshlab bergan istiqlol davri tarixi boshlandi. 130 yillik Rossiya mustamlakasiga mahkum etilgan davrning ilgarigi zamonlardan farqi shuki, shu vaqtida ayniqsa, sho'rolar hukmronligi yillarida xalqimiz tashqi dunyodan butunlay uzib quyildi¹.

Garchi katta mamlakatning asosiy qonuni hisoblangan «SSSR Konstitusiyasi» da O'zbekiston boshqa o'n to'rtta «qardosh va jondosh» milliy respublikalar singari «teng huquqli», «mustaqil», «suveren» davlat sifatida ta'rifu-tavsif etilsa-da, amalda ko'zga ko'rinas, ming va million xil ustalik bilan «to'qilgan», to'rlar bilan qo'l-oyog'i bandi etilib quyilgan edi.

Mustabid sovet tuzumi davrida O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarni asosan sosialistik mamlakatlar bilan, sobiq markazning yo'l-yo'riqlari bilan amalga oshirar, respublikaning o'zi tashqi bozorga mustaqil ravishda chiqish huquqiga ega emas edi.

Respublikaga olib kelinadigan mahsulotlar, respublikadan chiqariladigan mahsulot hajmiga nisbatan ancha ortiq edi. 1990 yil respublikaga 14661,8 mln. so'mlik mahsulot olib kelingan bo'lsa, chetga chiqarilgan mahsulot hajmi 9351,5 mln. so'mga teng bo'lgan.

XXI asr bo'sag`asida O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritib jahon hamjamiyatga kirish, integrasiyalashish tomon uz tutdi.

Jahon amaliyotidan ma'lumki, har bir mustaqil davlat, ayniqsa mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan mamlakatlar, hech qachon o'z qobig'iga o'ralib rivojlanmagan. Aksincha, mustaqil rivojlanish yo'lini tanlashi bilanoq jahon hamjamiyatga qo'shilish orqali o'z taqdirini belgilagan².

O'zbekistonning jahon hamjamiyatga qo'shilish davri g'oyat bir murakkab va qaltis davrga to'g'ri keldi. Sobiq ittifoq tarqalib ketgach dunyo asosan ikki qutbli (SSSR va AQSh) bo'lgan bo'lsa, endi ko'p qutbli bo'lib qolgan edi. XX

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-Toshkent: Sharq, 1998.-B.19.

² Usmonov Q. va boshqalar. O'zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida.-Toshkent: O'qituvchi, 1996.-B.92.

asr o'z g`avg`olari, to`palonlarini, qirg`inlarini biz yashayotgan XXI asrga meros qilib qoldirib xayr ma`zur qilayotgan bir davrga to`g`ri keldi.

O`zbekiston geosiyosiy jihatdan qulaylik tug`diruvchi imkoniyatlar bilan birga, bu borada kiyinchiliklar tug`diruvchi bir qancha omillar ham mavjud edi. Garchi, tashqi siyosat sohasidagi an`analarimizning ildizlari uzoq moziyga borib taqalsa-da, mustamlaka davridagi yo`qotishlar natijasida, dastlabki paytlarda respublikamiz tashqi siyosat yuritish tajribasiga ham, jahon diplomatiyasini biladigan kadrlarga ham ega emas edi.

Tashqi siyosiy diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalarni o`zi mustaqil boshlashga to`g`ri kelsada, respublika rahbariyati bu boradagi muammolarni yechishga dadil kirishdi, yuqorida ta`kidlab o`tilgan kiyinchiliklarni yengib o`tib, qisqa davr mobaynida o`z o`rni va mavqeiga ega bo`ldi.

I.Karimov o`zining «O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li» va boshqa asarlarida mustaqil tashqi siyosat uritish qoidalarini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. 1991 yil 31 avgustda Oliy Kengash VI sessiyasida qabul qilingan «Mustaqillik haqidagi Bayonot»da O`zbekistonning tashqi siyosatdagi yo`li aniq qilib belgilangan edi. Jumladan, unda: «Xalqaro hamjamiyatning to`la huquqli a`zosi bo`lgan O`zbekiston Respublikasi Xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq sub`ekti sifatida qatnashadi, uning maqsadlari mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o`z hududini qurol-yarog`lardan xoli qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg`in qurollarini yo`qotish, suveren davlatlar o`rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatalish va tazyiqqa yo`l qo`ymaslikdan iborat»¹.

O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 17-moddasida mamlakatimiz tashqi siyosat qoidalari qonunlashtirildi va u jahondagi ko`plab mamlakatlar bilan hamkorlik jarayonlari ortga qaytmasligining huquqiy kafoloti bo`lib xizmat qilmoqda. O`zbekistonni xalqaro huquq sub`ekti sifatida belgilaydigan,

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли.-Тошкент: Ўзбекистон, 1992.-Б 96.

respublikaning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan qonunlar qabul qilindi.

«O`zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to`g`risida»gi, «Chet el investisiyalari», «Xorijiy investorlar faoliyatining kafolotlari to`g`risida»gi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to`g`risida» va boshqa qonunlar hamda normativ hujjatlar ana shular jumlasidandir. Bular faol va keng ko`lamli hamkorlik uchun mustahkam huquqiy kafolot yaratib beradi.

Xalqaro huquq normalarining ichki qonunlardan ustunligi respublika qonunchilik faoliyatida o`z ifodasini topmoqda. Birinchidan, respublika qonunlari xalqaro huquq normalariga doimo muvofiqlashtirilmoqda va yaqinlashtirilmoqda.

Ikkinchidan, mamlakatimiz xalqaro normalarning bajarilishini kafolotlaydigan hamma majburiyatlarni o`z zimmasiga oldi.

Tashqi aloqalarni ta`minlaydigan vazirliklar va muassasalar tashkil etildi: Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki. 1992 yilda Toshkentda «Jahon iqtisodi va diplomatiya universiteti» ochildi.

I.Karimov o`zining asarlari, ma`ruza va nutqlarida mamlakatimiz tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarining asosiy tamoyillarini nazariy amaliy jihatdan puxta asoslab berdi. Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy yo`lni belgilashda jahon tajribasidan foydalanildi, mamlakatimiz, xalqimiz xususiyatlari va manfaatlari hisobga olindi. Tashqi siyosatga tinchlik, barqarorlik, hamkorlik yo`li asos qilib olindi¹.

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va havfsizligiga mos bo`lib to`tgan tinchliksevar tashqi siyosati, uni jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta`minladi.

¹ Murtazayeva R.H. O`zbekiston tarixi. Ma`ruzalar matni. -Toshkent: Universitet, 2000. -B.52.

O'zbekistonni dunyodagi 165 ta barcha nufuzli davlatlar tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatik siyosiy, iqtisodiy, ilmiy- texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda 40 ga yaqin mamlakatning elchixonasi ochildi. O'zbekistonda 88 ta xorijiy vakolatxona, 24 ta hukumatlararo va 13 ta hukumatga qarashli bo'limgan tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Jahonning 20 dan ortiq mamlakatida O'zbekistonning elchixonalari, 9 ta mamlakatda konsulxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

2. Mustaqil davlat xalqaro tashkilotlarda qanchalik keng qatnashsa, u xalqaro hamjamiyatga shu darajada keng kirib boradi, jahonda tinchlik, osoyishtalik, o'zaro hamkorlik uchun kurashda tegishli darajada faol qatnasha oladi, imkoniyat taraqqiyotiga qo'shayotgan o'z ulushini yanada oshirib boradi, jahonning ilg'or davlatlari bilan tobora yaqinlashdi, ularning fan-texnika va texnologiya sohasidagi yangiliklarini saraliroq qabul kilib oladi. Shu nuqtai-nazardan mustaqil O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarini yil sayin kengaytirishi juda katta ahamiyatga egadir.

Xalqaro tashkilotlarda faol qatnashish -mustaqil O'zbekistonni jahon miqyosida tanitishning, uning xalqaro mavqeining oshirishning muhim va samarali yo'lidir. Hozirgi kunda jahonda 350 dan ortiq hukumatlararo tashkilotlar mavjud¹.

O'zbekiston, o'z mustaqilligini e'lon qilgandan so'ng, 50 dan ortiq jahonning eng nufuzli tashkilotlariga a'zo bo'ldi. Bu - BMT, UNESKO, Ovrupada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti, Xalqaro valuta jamg'armasi, Xalqaro moliya korporasiyasi, Xalqaro mehnat tashkiloti, jahon sog'lijni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro-mintaqaviy tashkilotlar hamda assotsasiyalardir.

¹ Murtazayeva R.H. O'zbekiston tarixi. Ma'ruzalar matni. -Toshkent: Universitet, 2000. -B.54.

1992 yil 29 yanvarda BMT havfsizlik kengashi o`zining 737 -qarorini ovozga qo`ymasdan qabul qildi va Bosh Assambleyaga O`zbekiston Respublikasini BMT ga qabul qilishni tavsija etdi¹.

1992 yil 2 martda BMT Bosh Assambleyasining 46-sessiyasida O`zbekiston ovozga quyilmasdan, yakdillik bilan ma`qullah asosida BMT ga qabul qilindi.

O`zbekiston Respublikasi o`z tarixida birinchi bor Xalqaro hamjamiatning teng huquqli sub`ekti sifatida BMT a`zoligiga qabul qilindi.

Bu tarixiy voqeа O`zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiatdan munosib o`rin olishda katta ahamiyatga ega bo`ldi.

I.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993 yilda bo`lgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda qilgan ma`ruzasi O`zbekistonni jahonga ko`hna va navqiron davlat sifatida tanitdi.

O`zbekiston BMT minbaridan Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, qo`shni Afg`onistonda birodarkushlik urushini to`xtatish, Markaziy Osiyoni yadro qurolidan ozod zonaga aylantirish, narkobiznesga qarshi kurashda barcha davlatlar xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish, Markaziy Osiyoda ekologik vaziyatni sog`lomlashtirish maqsadlarida, ya`ni umummanfaat yo`lida foydalanmoqda. 1993 yil fevralida Toshkentda BMT ning vakolatxonasi ta`sis etildi va u ish boshladi.

O`zbekiston Respublikasi va BMT rahbarlarining sa`yi-harakatlari natijasida respublikamizdagи BMT vakolatxonasi BMT ning Taraqqiyot dasturi, Qochoqlar ishi bo`yicha olib qo`mita komissari, Jahon sog`liqni saqlash tashkiloti, Aholi joylashish jamg`armasi, narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqqiyoti dasturi, «Bolalar jamg`armasi» singari ixtisoslashgan muassasalarini o`z tarkibiga birlashtirishga muvofiq bo`ldi. Xususan, uning

¹ Xakimov R. “O`zbekiston va BMT” -T.: O`zbekiston, 1999.-B.24.

boshlig`i (sobiq) Xolid Malikning faol ishtirokida O`zbekistonda ko`plab xalqaro tadbirlar o`tkazildi.

O`zbekistonning jahon hamjamiyat bilan integrallashuvida BMT doirasidagi ixtisoslashgan tashkilotlar bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

1993 yil 29 oktyabrda BMT ta`lim, fan va madaniyat bo`yicha qo`mitasi (UNESKO) ning Parijdagi qarorgohida O`zbekiston UNESKO a`zoligiga qabul qilindi. O`zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar -jahon sog`liqni saqlash tashkiloti, xalqaro mehnat tashkiloti, jahon intelektual mulk tashkiloti, BMT ning bolalar fondi, xalqaro pochta ittifoqi, Xalqaro Olimpiada qo`mitasi va ko`plab boshqa tashkilotlarning a`zosi bo`ldi.

O`zbekiston BMT ning 50 yilligiga bag`ishlangan tantanalarda faol qatnashdi. I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 1995 yil sentyabr-noyabr oylarida bo`lib o`tgan 50-ubiley sessiyasida qatnashib bu nufuzli tashkilot faoliyatini yaxshilashga doir o`z takliflarini bayon qildi¹.

I.Karimov bu ulkan minbardan turib, davlat arboblari va siyosatdonlar diqqatini quyidagi masalalarga qaratdi :

Birinchidan-milliy havfsizlik masalasini hozirgi zamon talab va ehtiyojlari nazaridan qaytadan ko`rib chiqish:

Ikkinchi masala BMT Bosh kotibi vakolatlarini kengaytirish, uning jahon mamlakatlari taraqqiyotiga qo`shadigan hissasidan kelib chiqib, o`z maqomini kuchaytirish masalasıdir:

Uchinchchi masala qator mamlakatlararo va mintaqalararo faoliyat ko`rsatayotgan xalqaro tashkilotlar maqomini bir oz o`zgartirib, uni BMT doirasiga kiritish zarur.

I.Karimov xalqaro tashkilotlar yagona tizimini vujudga keltirish XXI asr taqdirini belgilaydigan muhim omil ekanligini ko`rsatib berdi. O`zbekiston 1992 yil fevral oyida dunyoda tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya

¹ O`zbekiston tarixi. Ma`ruzalar matni.-Namangan, 2006.-B.47.

qilish bo'yicha katta tadbirlar amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot - Yevropada havfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi. I.Karimovning 1992 yil 9-10 iulda bo'lgan Yevropada havfsizlik va hamkorlik tashkilotining majlisida ishtirok etib, unda nutq so'zlashi va Kengashning 10 iulda bo'lgan majlisiga raislik qilishi O'zbekistonning jahon hamjamiyatda munosib o'rin egallayotganligining dalilidir.

1995 yil iyulda Toshkentda E.X.H.Tning aloqalar bo'yicha mintaqaviy buroasi ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda. EXHTning 1996 yil dekabrda Lissabonda bo'lgan samitida I.Karimov mojarolar uz bergan hududlarga yashirinchcha qurol-yarog` etkazib berishni to'xtatish, 1999 yil 10-12 noyabr kunlari Stambulda bo'lgan sammitida terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazini tashkil etish to`g'risida muhim takliflarni ilgari surdi va ular sammit ishtirokchilari tomonidan ma'qullandi.

O'zbekiston ko'pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi Yevropa ittifoqi, NATO, EKO, Islom konferensiyasi tashkiloti, qo'shilmaslik harakati va boshqalar bilan samarali hamkorlik qilmoqda.

1996 yil iyul oyida Florensiya shahrida Yevropa ittifoqi bilan O'zbekiston o'rtasida sherikchilik va hamkorlik to`g'risida Bitim imzolandi. Bu hujjat O'zbekiston, Yevropa ittifoqi va unga a'zo bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning huquqiy negizi bo'lib, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochdi.

O'zbekiston bilan Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkilotlari -NATO o'rtasida o'zaro tushunish va hamkorlik mavjud. 1995 yil iul oyida O'zbekiston NATO ning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi tomonidan 1995 yilda AQShda, 1997 yilda Qozog'iston va O'zbekistonda o'tkazilgan harbiy mashqlarida O'zbekiston harbiy qismilarining ishtiroki zabit va askarlarning harbiy texnik tayyorgarligini yanada ko'tarishga xizmat qildi¹.

¹ Xakimov R. "O'zbekiston va BMT" -T.: O'zbekiston, 1999.-B.36.

O'zbekiston tarixan qisqa bir davrda xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal qilishda, umumiylar va mintaqaviy havfsizlikni mustahkamlashda faol qatnashayotgan nufuzli davlat darajasiga ko'tarildi.

3.Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) - bir butun davlat, federasiya yoki mamlakat emas, harbiy blok ham emas, davlatlar hamdo'stligining yangicha shakli. Unga kiruvchi har bir davlat xalqaro huquqning mustaqil va teng huquqli sub'ektidir¹.

MDH 1991 yil 8 dekabrdagi Minsk shahrida, SSSR ning barham topishi munosabati bilan shakllandi. O'sha kuni Belovejskoe - Pushcheda Rossiya, Ukraina, Belorussiya rahbarlari -B.Elsin, L. Kravchuk S. Shushkevichlar MDH ni tuzish to'g'risida shartnoma imzoladilar. 1991 yil 13 dekabrdagi Ashgabadda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston Prezidentlari uchrashib MDHga, uni ta'sis etuvchilar maqomida kirishga tayyor ekanliklarini bildirib, Bayonot e'lon qildilar.

1991 yil 21 dekabrdagi Almatida 11 davlat-Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Armaniston, Moldaviya boshliqlarining kengashi bo'ldi. O'sha kuni ular Belovejskoe-Pushche shartnomasi uzasidan protokol imzolab, «Teng huquqli va ahplashayotgan oliy tomonlar» maqomida MDH muassisi bo'ldilar.

MDH ning tashkil topishi XX asrning muhim voqealaridan biri sifatida tarixga kirdi.

1991-2000 yillarda MDH davlatlari boshliqlarining 30ga yaqin kengashlari bo'lib o'tdi. Ularda umumiylar manfaatlarga doir 1400 ga yaqin shartnoma, bitim va boshqa hujjatlar imzolandi. Ularning barchasi uzoq yillar bir davlat bo'lib kelgan mamlakatlararo iqtisodiy, madaniy, harbiy va boshqa aloqalarni yangi sharoitlarda-mustaqlil davlatlararo munosabatlar tarzida davom ettirishga qaratildi.

¹ O'zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Uchinchi kitob.-Toshkent: Sharq, 2000.-B.265.

Istiqlol yillarida O'zbekiston o'zining qat'iy mustaqil taraqqiyot yo'lidan borish, puxta ishlab chiqilgan tashqi siyosat tamoyillariga to'liq amal qilish bilan MDH da o'zining munosib va qat'iy nuqtai nazariga ega bo'ldi.

Buni quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. O'zbekiston avval boshdan MDH tarafdori bo'lib chiqdi. Chunki, sobiq Ittifoq davridagi respublikalararo an'anaviy munosabatlar yangi vaziyatga mos ravishda davom ettirilishi kerak edi.
2. Bunday Ùamdo'stlik mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlab, bu davlatlarning siyosiy mustaqilligiga dahl qilmasligi lozim. O'tish davri qiyinchiliklarini MDH davlatlarining barchasi o'z boshidan kechirdi.

Bu esa iqtisodiy bo'hronlarni bartaraf etish, bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida yillar mobaynida bir-biriga o'zaro chambarchas bog'liq ishlab chiqarish va xo'jalik munosabatlarini yanada yaxshilash zarur edi. Bu kabi masalalarni hal etishga xizmat qiluvchi ko'plab me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy etishda O'zbekiston alohida o'ringa ega bo'ldi.

O'zbekiston MDH ga a'zo davlatlar bilan o'zaro ikki taraf uchun ham foydali hamkorlik qilishga hamisha tayyor va o'z tashqi siyosatida shunga intilib kelayapti. MDH ga a'zo ko'p mamlakatlar bilan ana shunday hamkorlikda ish olib borilmoqda.

1991-2001 yillarda Rossiya, Ukraina, Belorus, Moldava, Gruziya, Ozarbayjon, Litva, Latviya va Markaziy Osiyo respublikalari bilan diplomatik, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy aloqalar o'rnatildi va u rivojlanib bormoqda.

Xususan, O'zbekiston va Rossiya o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari rivojlanib bormoqda. Rossiya Federasiyasi Prezidenti V.V.Putinning 2000 yil 18-19 may kunlari O'zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi, savdo

iqtisodiy va harbiy hamkorlik qilish to`g`risida imzolangan bitimlar ikki davlat o`rtasidagi aloqalarning yangi bosqichga ko`tarilishiga xizmat qilmoqda¹.

2000 yil 20 iyun kuni Moskvada bo`lib o`tgan MDH mamlakatlari davlat rahbarlari Kengashi samarali bo`ldi. Sammitda 2000 yilgacha bo`lgan muddatda Üamdo`stlikni rivojlantirish borasidagi ishlar dasturi muhokama qilindi. Qabul qilingan mazkur hujjat MDH doirasida erkin savdo zonasi barpo etish borasidagi to`lovlar va soliqlar tartibini muvofiqlashtirishga kelishib olindi. Sammitda MDH ning terrorchilikka qarshi kurash markazini tashkil etish, shuningdek MDH davlatlarining 2003 yilgacha xalqaro terrorchilik va ekstremizmga qarshi kurash borasidagi dasturi to`g`risidagi masalalar muhokama qilindi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

O`zbekiston Prezidenti I.Karimovning Yevropada havfsizlik va hamkorlik tashkilotining 1999 yil noyabrdagi Istanbul sammitida ilgari surgan terrorchilikka qarshi davlatlararo miqyosdagi kurashni muvofiqlashtiruvchi markaz tuzish g`oyasi amalga oshdi. Moskva sammiti MDH mamlakatlari o`rtasidagi ma`lum darajada yakdillik paydo bo`lganligidan guvohlik beradi.

Ma`lumki, dekabr oyida MDH tashkil topganiga 10 yil to`ldi. Shu munosabat bilan 2001 yil 30 noyabr yakuniy ubiley sammiti bo`lib o`tdi. Prezidentlar o`tgan davr mobaynida qilingan ishlarni sarhisob qildilar. MDH ning bugungi ahvoli va kelajagi xususida fikr almashdilar. I.Karimov hamdo`stlik faoliyatida birgalikda o`zaro foydali hamkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy integrasiya masalalariga e`tiborni yanada kuchaytirmoq kerakligini har xil harbiy -siyosiy mavzularga chalg`imay, o`zaro manfaatli munosabatlarni ravnaq toptirishga intilishi maqsadga muvofiqligini ta`kidladi. Zotan, MDH ni tuzishdan maqsad ham mavjud iqtisodiy rishtalarni saqlab kolish va rivojlantirishdan iborat edi.

¹ Otamurotov S., Mamashokirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g`oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. –Toshkent: Yangi asr avlod, 2001.-B.47.

MDH xususidagi qisqacha fikrlarga yakun yasab shuni aytish mumkinki, u o'zining qisqa bosib o'tgan faoliyat yo'lida, zolvorli qadamlar tashlayotganligini hamda iqtisodiy integrasiya va mintaqaviy mojarolarni echishga qodir tuzilma ekanligini ko'rsatdi. Shak-shubhasiz o'tgan yillardagi MDH faoliyatida O'zbekiston o'z o'rni va alohida mavqega ega ekanligini isbot etdi.

4. Har bir davlatning obro'si va qudrati uning qancha va qaysi davlatlar bilan olib borayotgan tashqi aloqalariga ham bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston bugungi kunda dunyoning barcha mintaqalarida ishonchli hamkor sifatida o'z mavqeini to'la nomoyon eta oldi.

1. O'zbekiston va O'rta Osiyo davlatlari: O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yunalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlar - Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan hamkorlik, do'stlik rishtalarini mustahkamlashga qaratilgan. Markaziy Osiyodagi bu beshta davlatning qadimiy tarixi, madaniyati, tili va dilining birligi, tomirlarining tutashib ketganligi shuni taqozo etadi.

O'zbekiston rahbariyati bu hududdagi davlatlar, xalqlar manfaatlariga mos tushadigan teng huquqli hamkorlik ko'lамини tobora kengaytirib, mustahkamlab bormoqda. Tojikiston fojeasini bartaraf etishda O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy ko'magi, qardosh besh mamlakatning O'rta yer dengizi, Hind okeani, Tinch okeani bilan bog'lovchi temir yo'llar qurilishida hamda orolni qutqarish harakatida O'zbekistonning faol ishtiroki buning yorqin misolidir¹

. Markaziy Osiyo davlatlarining 1990 yil iundagi Almata uchrashuvida o'zaro do'stlik va hamkorlikning muhimligi ko'rsatildi. Bu uchrashuv, iqtisodiy inqirozdan chiqish uchun besh davlat o'z iqtisodiy resurslarini birlashtirishi zaruriyatini ko'rsatdi. Bu davlat rahbarlari har yili uchrashish to'g'risida kelishib oldilar. Bu an'ana davom etib, har yili 2-3 marotaba Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari kengashlari bo'lib o'tmoqda.

¹ Otamurotov S., Mamashokirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. –Toshkent: Yangi asr avlod, 2001.-B.54.

1994 yil 30 aprelda Qirg`izistonning Cho'lponota shahrida O'zbekiston, Qozog`iston va Qirg`iziston o`rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o`zaro kelishilgan kredit hisob-kitob, budget, soliq, narx, boj va valuta siyosatini ta`minlovchi yagona iqtisodiy makonni tashkil etish to`g`risidagi shartnomaning imzolanishi bu mamlakatlar o`rtasidagi hamkorlikni yangi pog`onaga ko`tardi.

1994 yil iul oyi boshida Qozog`iston, O'zbekiston va Qirg`iziston Prezidentlarining uchrashuvida o`zaro integrasiyani kuchaytirish bo`yicha bitimlar imzolandi.

Tomonlar Davlataro Kengash hamda uning doimiy ijroiya organini, shuningdek, Bosh vazirlar Kengashi, Tashqi Ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligining Kegashini ta`sis etdilar.

Ayniqsa, 1996 yil 12 yanvarda Ko`kchatovda, 1997 yil 9-10 yanvarda Bishkekda, 1997 yil 12 yanvarda Oqmoloda bo`lib o`tgan O'zbekiston, Qirg`iziston Prezidentlarining, 1998 yil Ashgabodda Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg`iziston va Qozog`iston Prezidentlarining nihoyat, 1998 yil 26 martda Toshkentda O'zbekiston, Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston Prezidentlarining o`zaro uchrashuvlari hamda 2000 yil 14 iyun kuni Dushanbeda Markaziy iqtisodiy hamjamiyat davlatlararo kengashining navbatdagi majlisi va boshqalar Markaziy Osiyo respublikalari hayotida katta ahamiyatga ega bo`ldi.

3.Yaqin Sharq va O`rta Sharq mamlakatlari bilan aloqlar: 1991-1999 yillar davomida I.Karimov boshliq davlat delegasiyasining Turkiya, Eron, Pokiston, Hindistonga va mazkur davlatlarning davlat va hukumat boshliqlarining O'zbekistonga rasmiy safari paytida imzolagan hujjatlari davlatlaro munosabatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. 1992 yil 6 fevralda O'zbekiston, Pokiston, Eron va Turkiya tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga (EKO) a`zo bo`lib kirdi. 1992 yil 10 mayda Ashgabadda O'zbekiston, Qozog`iston, Turkmaniston, Eron, Turkiya, Pokiston davlat va

hukumat rahbarlari Trans - Osiyo temir yo`lini vujudga keltirish maqsadida Tajan-Saraxs-Mashhad temir yo`lini qurish haqida bitimni, bojxona xizmatini tashkil etish haqidagi hujjatlarni imzoladilar. Uzunligi 295 km bo`lgan mazkur temir yo`l 1996 yil tugallandi va ishga tushirildi.

3. Bu yo`l orqali O`zbekiston Fors ko`rfazigacha, undan so`ng dunyoning istalgan burchagiga chiqishi mumkin.
4. O`zbekistonning Sharq va Tinch okean havzasasi mamlakatlari bilan munosabatlari. Prezidentimizning 1992 yildagi rasmiy safari natijasida - Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Malayziya, Indoneziya bilan diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalar yo`lga quyildi. Ana shu aloqalar chog`ida Xitoy tomoni bilan 20 dan ortiq shartnomalar imzolandi. Bugungi kunda O`zbekistonda 80 ga yaqin O`zbekiston -Xitoy qo`shma korxonalari faoliyat ko`rsatmoqda.

1992 -1996 yillar davomida «UZDEU avto» O`zbekiston -Janubiy Koreya qo`shma korxonasi ishga tushirildi¹.

1998 yilda 54 400 ta «Damas», «Tiko», «Neksiya» rusumli avtomobilлari ishlab chiqarildi.

O`zbekiston -Yaponiya hamkorligida, Yaponianing dunyoga mashhur «Misui» va KO LTD «Misubishi Korporeyshen», «Sumitoto korporeyshn», «Tomen kor korporeyshn», «Chori» kompaniyalarining o`rni salmoqlidir. Bunday aloqalar Malayziya, Indoneyziya, Ve`tnam, Tayland, Avstraliya va boshqa mamlakatlar bilan olib borilayotgan aloqalarda ham ijobjiy natijalar bermoqda.

AQSh va Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik. Bundan qariyib 2,5 ming yil muqaddam Iskandar Zulqarnaynning bosqinchilik urishlaridan boshlab biz Ovrupo sivilizasiyasi bilan o`zaro ta`sirda bo`lib kelmoqdamiz.

¹ O`zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O`zbekiston tarixi. Uchinchi kitob.-Toshkent: Sharq, 2000.-B.305.

I.Karimovning AQSh, Avstriya, Shveysariya, Finlandiya, Germaniya, Fransiya, Buuk Britaniya, Gollandiyaga qilgan rasmiy davlat tashriflari natijasida G`arbning ilg`or mamlakatlari bilan o`z hamkorligini yaxshi yo`lga qo`ydi. Xususan, O`zbekistonning AQSh bilan hamkorlik aloqalari rivojlanib bormoqda. 1996 yil 28-29 iul kunlari I.Karimovning Bill Clinton bilan uchrashuvi, 2003 yil 16-19 aprelda AQSh davlat kotibi Madlen Olbrayt Xonimning O`zbekistonda bo`lishi katta ahamiyatga ega bo`ldi.

1996 yil boshlarigacha 200 ta O`zbek- Amerika qo`shma korxonalari tashkil topdi va faoliyat ko`rsatdi. Bular orasida tog` jinslaridan oltin ajratib oluvchi «Zarafshon-N`umont» korxonasini alohida qayd etmoq lozim. Biri Osiyo, ikkinchisi Yevropa qit`asida joylashgan O`zbekiston va Germaniya nomlari tez-tez, yonma-yon matbuot sahifalarida tilga olinmoqda.

I.Karimovning 1993 yil Germaniyaga tashrifi ikki davlat o`rtasida o`zaro hamkorlikka asos solgan bo`lsa, Germaniya Federal Prezidenti Roman Gersogning 1995 yil aprel oyidagi respublikamizga tashrifi esa shu hamkorlikning uqori pog`onaga ko`tarishda muhim qadam bo`ldi.

Umuman olganda hozirgi kunda respublikamizda xorijiy mamlakatlarning sarmoyadorlari ishtiroki bilan 3200 dan ortiq qo`shma korxona faoliyat ko`rsatmoqda. O`zbekiston tashqi siyosatining hududi uzluksiz kengayib bormoqda.

Mustaqillik yillarda O`zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish borasida chuqur islohotlar amalga oshirilishi natijasida tashqi savdoning geografik va tovar tarkibida jiddiy ijobjiy o`zgarishlar yuz berdi. So`nggi yillarda eksport tarkibida raqobatdosh tayyor mahsulotlar ulushi barqaror sur`atlar bilan o`sib borayotgani yaqqol ko`zga tashlanmoqda. O`zbekiston bugungi kunda dunyoning 50 dan ortiq mamlakatiga o`z mahsulotlarini eksport qiladi. Bu kabi ko`rsatkichlarga erishish uchun Prezident tomonidan tegishli qaror va Farmonlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Eksport qiluvchi korxonalarini rag‘batlantirishni kuchaytirish va raqobatdosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qo‘srimcha chora – tadbirlar to‘grisida»gi 2012 – yil 26 – martdagি PQ – 173 – sonli va —O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solishga doir chora – tadbirlarni davom ettirish to‘g‘risida» 2012 – yil 10 – sentabrdagi PQ – 1816- sonli qarorlari yuqoridagi fikrlarimizning isbotidir.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek O‘zbekiston bugungi kunda o‘zining eksport salohiyatiga ega va borgan sari bu salohiyat yuksalib bormoqda. Ya‘ni O‘zbekiston bugungi kunda xorijiy davlatlarga quyidagi mahsulot va tovarlarni eksport qilmoqda:

Kimyo va neft mahsulotlari: Azot-fosforli o‘g‘it(AFO), Monoammoniyafosfat(MAF), Past zichlikdagi ammoniy nitrat, Ammoniy sulfat, Superofos – NS, Nitrofos, Ammiakli selitra, Suyuq azotli og‘it(KAS), Texnik nitrate natriy, Karbamid, Suyuq xlorat-magniy defolianti, Texnikaviy formalin, Oltingugurt, Kaliy xlorid, Diatsetat selyuloza, Suyuq xlor, Texnikaviy metanol.

Metallurgiya mahsulotlari: Mis quvurlar, Qora metallar, Temir simlar, Elektrodlar, Volfram metal, Latun lentalar va iplar, Po‘lat sharlar, Sirlangan xo‘jalik idishlari, Molibden metal.

Mashinasozlik: Paxta yig‘ish mashinasi, Ko‘rak yig‘ish paxta mashinasi, Paxta universal traktori, Kichik traktor va boshqa texnik qurilmalar.

Qurilish mahsulotlari: gipsakarton kengashi, alyuminiy eshiklar va turli xil oynalar, polietilen quvurlar, bo‘yoq va qoplamlalar, metal cherepitsalar, kabellar va simlar, yo‘lak plitalari, vibropresslangan bruschetka va chegaralovchilar, portlend tsement, laym, profnastil, sendvich panellar, gips, marmar, granit spool plitkalar, olovga chidamli g‘isht, quruq qurilish aralashmalar, PVC panellar, zich jinslardan moloz.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari: sabzavot, poliz va dukkakli ekin xosillari, mevalar, yong‘oq va donli maxsulotlar, quritilgan sabzavot va poliz ekinlari, quritilgan meva va quritilgan meva aralashmasi.

Don maxsulotlari: bug‘doy va un.

Tekstil mahsulotlari: kalava iplar, paxta mato, tayyor trikotaj maxsulotlar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik maxsulotlari: jun, offis va turar joy uchun mebellar, kosmetika, tozlash va yuvish vositalari, makaron mahsulotlari, sanitariya va gigiyena uchun qog‘oz, bolalar tagliklari, salqin ichimliklar, gazlangan va gazlanmagan ichimlik suvi.

Avtotransport vositalari: matiz, spark, neksiya, cobalt, gentra, kaptiva, malibu, Man(avtobuslari), Man(yuk mashinalari). Mamlakatimizda eksport qiladigan korxonalarni qo‘llab – quvvatlashga oid chora – tadbirlarning amalgam oshirilgani eksport faoliyatiga 450dan ortiq yangi korxonani jalb etish imkonini berdi. 2015 – yil yakunlariga ko‘ra «...Jahon miqyosida savdo-sotiq ishlarining o_sish sur‘ati sezilarli darajada sustlashgani, eksport qilinadigan eng muhim tovarlarga nisbatan tashqi talabning kamayishi va narxlarning pasayishiga qaramasdan, biz tashqi savdo aylanmasida ijobiy saldoga erishdik. Bu esa davlatimizning oltin-valyuta zaxirasini oshirish imkonini berdi»¹.

Tashqi savdo — bir mamlakatning boshqa mamlakat yoki mamlakatlар bilan olib boradigan savdosi. Mamlakatdan tovarlar chiqarish (eksport) va mamlakatga tovarlar kiritish (import)dan tashkil topadi. Eksport va import yig’indisi mamlakatning Tashqi savdo aylanmasini tashkil etadi. Mamlakatlar o’rtasida savdo sotiqni rivojlanishi ikki tomonlama foyda olish imkonini beradi. Tashqi savdo mamlakatlararo iqtisodiy munosabatlarning eng oddiy va eng qadimiy shaklidir. O’zbekiston Respublikasi jahonning 140 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo sotiq aloqalarini amalga oshirmoqda. Asosiysi —

¹ Karimov I.A. 2015 – yil yakunlaridan. – T.:«Xalq so‘zi gazetasi»,2016 yil 16 yanvar.

O'zbekistonning Tashqi savdoda faqatgina xom ashyo vositalari bilan qatnashuviga barham berilmoqda, eksport tarkibi sezilarli kengaymoqda. Rivojlangan mamlakatlar bilan savdo aloqalari chetdan qo'shimcha moddiy moliyaviy resurslarni jalb qilish, ishlab chiqarishga ilg'or texnika va texnologiyani joriy etish, ichki iste'mol bozorini turli tuman keng xalq iste'moli tovarlari bilan to'ldirish, xizmat ko'rsatish sohasida xorij tajribasidan foydalanish, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatning Tashqi savdo siyosatini O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar Agentligi amalga oshiradi. Tashqi savdo "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida" (1991, 14 iyun), "Valyutani tartibga solish to'g'risida" (1993, 7 may), "Davlat bojxona xizmati to'g'risida" (1997, 29 avg.) qonunlari, "Bojxona kodeksi" (1997, 27 dek.) va boshqa qonun va qarorlar, me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Mamlakatlar o'rtasida Tashqi savdoni tartibga solishda Juhon savdo tashkiloti muhim rol o'ynaydi.

Jahon bozori — xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish bilan o'zaro bog'langan mamlakatlar o'rtasidagi barqaror tovar-pul munosabatlari tizimi. Xalqaro savdo munosabatlari qadimda ham mavjud bo'lган, mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy va siyosiy aloqalar milliy davlatlarning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan, ammo ko'pgina mamlakatlar, so'ngra jaxondagi barcha mamlakatlar savdosini qamraydigan Juhon bozori (uning negizida jahon xo'jaligi) faqat yirik mashinalashgan industriyaga o'tish bilan shakllana boshladi va XX asr boshlariga kelib qaror topdi. Yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga o'tish milliy bozor chegaralarini kengaytirdi, tashqi savdo u yoki bu mamlakatning ichki taraqqiyotini to'ldiradigan omildan mamlakat xo'jaligi taraqqiyotining zaruriy shartiga aylandi. Ixtisoslashuv bir mamlakatda muayyan tovarni arzon va sifatli ishlab chiqarish imkonini bersa, tovarlarni ishlab

chiqarishda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlasa, shu tovarlar ko'plab yaratiladi va Jhon bozoriga yetkazib beriladi. Biror mamlakatda resurslarni sarflash qulay bo'limgan yoki ishlab chiqarish imkonini bo'limgan tovarlar Jhon bozoridan sotib olinadi. Jhon bozorida alohida narxlar — jahon narxlari amal qiladi, ayirboshlash ulgurji shaklda va xalqaro birjalar vositasida olib boriladi.

Jhon bozori tovar, mehnat, kapital va valyuta bozorlari majmuidan tashkil topadi. Jhon bozorida barcha mamlakatlar tashqi savdosining majmuini ifoda etadigan xalqaro savdo amalga oshiriladi. Bu tarkiban jahon miqyosidagi eksport va importdan iborat, ularning qiymat bo'yicha nisbati savdo balansi deb yuritiladi.

Xalqaro savdonining tovar tarkibi

- **Xomashyo tovarlari** – qishloq va o'rmon xo'jaligi, baliqchilik va ov mahsulotlari, qayta ishslash uchun katta sarf xarajat talab etmaydigan qazilma boyliklar;
- **Yarimtayyor mahsulot** – yakunlovchi qayta ishslashni talab etadigan mahsulotlar;
- **Tayyor mahsulotlar** – oxirigacha tayyor mahsulotlar;
- **Qisqa muddatda foydalanuvchi tayyor sanoat mahsulotlari** – 1 yil va undan qisqa davrda ishlatiladigan tovarlar;
- **Uzoq muddatda ishlatiladigan tovarlar** – 1 yildan uzoq ishlatiladigan tovarlar;
- **Qisqa muddatda ishlatiladigan iste"mol tovarlari(nooziq – ovqat)** – 1 yil va undan qisqa davrda ishlatiladigan tovarlar;
- **O'rta muddatda iste"mol qilinadigan tovarlar** – nisbatan kichik qiymatga ega bo'lgan 1 yildan 3 yilgacha ishlatish muddatiga ega tovarlar;
- **Uzoq muddatlari ishlatiladigan tovarlar** – 3 yildan oshiq muddatlarda ishlatish muddatiga ega tovarlar hamda katta qiymatga ega bo'lgan, 1 yildan 3 yilgacha ishlatish muddatiga ega tovarlar.

Jahon bozori xalqaro birjalar, savdo uylari, banklar, sug'urta kompaniyalaridan iborat bo'lgan o'z infratuzilmasiga ega. Jahon bozorida to'lovlar va hisob-kitoblar xalqaro pul vazifasini o'tovchi barqaror, erkin almashtiriladigan valyutalar, Maye, AQSH dollari, Yaponiya iyenasi va Yevroda olib boriladi. Jahon bozori ixtisoslashgan xalqaro birjalardan iborat yirik segmentlariga ega. Maye, Chikago don birjası, Liverpul paxta birjası va London rangli metallar birjası va boshqalar. Jahon bozorida savdo-sotiq xalqaro birja bitimlari, ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama birjadan tashqari bitimlar yo'nalishlarida boradi.

Jahon bozoridagi savdo-sotiqni maxsus tashkilot — Jahon savdo tashkiloti boshqarib boradi, davlatlararo savdo tartibi va qoidalarini belgilab beradi, unga a'zo bo'lganlar o'zлari uchun qulay savdo qilish huquqini oladilar.

Jahon bozorida investitsiya harakati ham yuz beradi, bu chet elda yangi korxonalarni qurish, eski korxonalarni sotib olish yoki o'ziga birlashtirish shakllariga ega. Bu ishni asosan transmilliy xalqaro korporatsiyalar olib boradi. Jahon bozorining ulkan salohiyati milliy bozorlarga juda katta ta'sir o'tkazadi, bu ta'sir mamlakatlarning manfaatlari nuqtai nazaridan ijobjiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Jahon bozori sig'imi jami mamlakatlar bozor talabining import hisobiga qondiriladigan qismlari yig'indisiga teng.

Jahon bozorida sanoati rivojlangan mamlakatlar ishtiroki ustunlik qiladi va ular tayyor mahsulot bilan (jahon tovar eksportining 70% dan ko'prog'i) qatnashadilar, rivojlanayotgan mamlakatlar asosan xom ashyo va ishchi kuchi eksporti bilan ishtirok etadilar.

O'zbekiston Jahon bozorida xom ashyo, energiya, rangli metall va boshqa mahsulotlar eksporti bilan qatnashadi, aksariyat texnologiya, kimyo mahsulotlari, oziq-ovqat tovarlarini import qiladi.

Jahon bozorini tizimli yondashuv asosida tahlil qilganda uning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- jahon bozorining shakllanishiga makroiqtisodiy subyektlarning samarali xalqaro ayirboshlashni amalgam oshirish maqsadida milly chegaralardan chiqishlari sabab bo‘lgan;
- tovarlar, xizmatlar va sihlab chiqarish omillarining xalqaro harakati jahon bozori konyunkturasida o‘z aksini topadi;
- jahon bozori ishlab chiqarish omillarining samaradorligi yuqori bo‘lgan sohalarga yo‘naltirish orqali ulardan foydalanishni optimallashtiradi;
- jahon bozori mahsulotlar bo‘yicha o‘ziga xos filtr vazifasini bajarib, xalqaro sifat andozalari va xalqaro raqobatning qat‘iy talablariga mos kelmagan mahsulotlarni xalqaro ayirboshlashdan chiqarib yuboradi.

Ammo xalqaro savdoda har qanday mahsulot ham ishtirok eta olmaydi. Ya‘ni mahsulotlarni ikki guruhga: savdo qilinadigan va savdo qilinmaydigan mahsulotlarga bo‘lish mumkin. Savdo qilinadigan mahsulotlar deganda xorijiy bozorlarda ayirboshlanadigan raqobatdosh mahsulotlar tushuniladi va aksincha, savdo qilinmaydigan mahsulolar deganda ishlab chiqariladigan mamlakat bozorida sotilib, xalqaro ayirboshlashda ishtirok etmaydigan mahsulotlar tushuniladi.

Jahon bozorining holati, konyunkturasi va u bilan bog‘liq narxlar xalqaro savdo qatnashchilarining doimiy diqqat markazida bo‘ladi. Keng ma‘noda konyunktura deganda muayyan davriy va geografik miqyosda qator omillar ta‘sirida vujudga keladigan bozorning aniq holati tushuniladi. Konyunkturaga ta‘sir qiluvchi omillar, narxlar darajasi, ularning o‘tgan davrda, hozirda va Eksport qilinadigan mahsulotlar Import qilinadigan mahsulotlar Eksport substitutlari (joriy vaqt ichki bozorda sotilayotgan va ayrim holatlarda xorijiga sotilishi mumkin bo‘lgan mahsulotlar Import substitutlari (zarurat bo‘lganida xorijiy mahsulotlar bilan almashtirilishi mumkin bo‘lgan mahalliy mahsulotlar Real import mahsulotlari Real eksport mahsulotlari Jahon bozorida savdo qilinadigan mahsulotlar kelajakda o‘zgarish dinamikasiga asoslangan jahon

bozori konyunkturasining rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash uchun murakkab tahliliy va istiqbolli tadqiqotlar amalgam oshiriladi.

Jahon bozori konyunkturasi turli darajalarda farqlanadi:

- umumiqtisodiy konyunktura (mamlakatlar iqtisodiyoti yoki jahon xo‘jaligi);
- jahon bozorining alohida segmentlari va tarmoq konyunkturasi;
- ayrim mahsulot va xizmatlar konyunkturasi (u yoki bu Tovar Tovar va xizmatlarning milliy yoki jahon bozori);

Vaqt mezonlari bo‘yicha jahon bozori konyunkturasi uchga bo‘linadi:

- ❖ joriy konyunktura;
- ❖ qisqa va o‘rta muddatli konyunktura;
- ❖ uzoq muddatli konyunktura.

Jahon tovarlar bozorini tizimlashtirish uchun turki xalqaro guruhlashlardan foydalanish mumkin. Bu guruhlash tarkibida BMTning xalqaro tarmoqlar guruhlashlari muhim o‘rin egallaydi. Statistik maqsadlarda bu tasniflagichda mashina va asbob – uskunalar, xomashyo va yoqilg‘i, qishloq va o‘rmon xo‘jaligi mahsulotlari ajratib ko‘rsatiladi.

Jahondagi har bir davlat o‘z hududida proteksionizm siyosatini qo‘llagan holda jahon bozorida qatnashadi. Mamlakatimizda ichki bozorni himoyalash maqsadida joriy etilgan odilona bojxona siyosati orqali O‘zbekiston ham bevosita Jahon bozorida ishtirok etmoqda. Respublikamiz jahon bozorida yuqorida aytib o‘tilgan eksport mahsulotlari bilan qatnashadi. O‘zbekiston Jahon bozorida faqatgina ekport opertsiyalarini emas balki mamlakat uchun zarur bo‘lgan moddiy va nomoddiy mahsulotlarini sotib olish maqsadida import operatsiyalarini ham amalgam oshiradi.

Biz shu o‘rinda, O‘zbekistonning bugungi kunda Jahon bozoriga taqdim etayotga va Jahon bozoridan xarid qilayotgan mahsulotlari haqida qisqacha ma‘lumotni e‘tiboringizga havola etishni joiz deb topdik.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston bilan dunyo mamlakatlari o'rtasidagi har tomonlama hamkorlik aloqalar kelajagi buuk davlat qurayotgan mamlakatimizning yorqin istiqboli uchun o'zining ijobiy natijalarini berishi shubhasizdir. Darhaqiqat, O'zbekiston jahon hamjamiyatdan munosib o'rinn olishga muvofiq bo'ldi. Eshiklarimiz dunyo uchun, dunyo eshiklari ham biz uchun tobora kattaroq ochilib bormoqda.

II.BOB. O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarining geoiqtisodiy aloqalarining asosiy yo'nalishlari va hamkorlik istiqbollari.

2.1 O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarining geoiqtisodiy hamkorligi: natija va muammolar

Markaziy Osiyo iqtisodiy jihatdan ham ulkan zahiralarga ega ekani ma'lum. Mintaqaning iqtisodiy salohiyati uning geosiyosiy ahamiyatini belgilovchi eng muhim omillardan hisoblanadi. Shu tufayli mintaqa iqtisodiy salohiyatining geosiyosiy ta'sir doirasiga tortilishi mumkin bo'lgan jihatlariga nazar tashlash joiz.

Ma'lumki, "manfaatlar to'qnashuvi" ancha yillar mobaynida Afg'oniston hududida ro'y berib keldi. Endilikda so'z bu to'qnashuv sahnasining Kaspiy atrofi yoki mintaqaning boshqa hududlariga ko'chish ehtimoli haqida bormoqda. Markaziy Osiyoda vujudga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatni AQShning taniqli tadqiqotchilaridan biri – Z.Bzejinskiy "Buyuk shaxmat taxtasi" asarida o'ziga xos tarzda talqin qiladi. Uning yozishicha, 1993-2015 yillar oralig'ida dunyoda energetika zahiralariga bo'lgan ehtiyoj 50 foizga ko'tarilishi kutilmoqda. Shu nuqtai nazardan yangi-yangi energetika zahiralarini izlab topishga bo'lgan ehtiyoj yetakchi davlatlarni ushbu zahiralarga boy hududlar tomon, xususan Markaziy Osiyo tomon chorlashi aniq. Tabiiy zahiralarga boy va ayni paytda millatlararo munosabatlari, tarixiy hududlar masalalari jihatdan notinch bo'lgan mintaqada millatlararo, hududiy negizda turli nizolarni keltirib chiqarishga urinishlar bo'lishi mumkin¹.

O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyo mintaqasidagi yangi mustaqil davlatlar - Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan hamkorlik, qardoshlarcha do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan.

¹ Бзежинский З. Великая шахматная доска. - Москва: "Международные отношения", 2000. -Б.151.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi beshta mustaqil davlat o'rtasida o'zaro birlariga umumiy va o'xhash bo'lgan tomonlar anchagina ko'p. Avvalo, tarixiy o'tmishimiz, madaniyatimiz, tilimiz, dinimiz, dilimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketganligidir. Bu xalqlarimizni bir-biriga yaqinlashtiradi va o'rtada do'stona munosabatlarning mustahkamlanishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston mintaqqa xalqlari o'rtasida teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatish va choralarini ko'rib bormoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining birinchi uchrashuvi 1990- yil iyun oyida Almati shahrida bo'lib o'tdi. Uchrashuv sobiq Ittifoq hali mavjudligi sharoitida uning ahvoli har tomonlama tobora og'irlashib, xalq xo'jaligining barcha sohalarida tanglik kuchayib borayotgan, pul qadrsizlanayotgan, narxnavo qimmatlashib, xalq turmush sharoiti tobora nochorlashayotgan sharoitda yuz bergen edi.

Markaziy Osipyodagi besh davlat iqtisodiy tanglikdan chiqish uchun resurslarni birlashtirish zarur, degan xulosaga keldilar. Besh mamlakat oliy rahbarlari O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlariga Murojaatnoma va boshqa hujjatlar imzolandi. Almati uchrashuvida davlat boshliqlari har yili uchrashuv o'tkazish to'g'risida ahslashib oldilar¹.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi uchrashuvi , 1991-yil 13-15-avgust kunlari Toshkent shahrida bo'ldi.

Undagi eng muhim hujjat - O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalararo Maslahat Kengashini tuzish to'g'risida bitim imzolandi. Maslahat Kengashining vazifasi beshta mamlakat o'rtasida iqtisodiy hamkorlik qilish uchun shart-sharoit yaratishdan, bozor munosabatlariga o'tishda mintaqqa manfaatlarini himoya qiluvchi kelishilgan siyosat yuritishdan iborat deb belgilandi.

1991-yil 13-dekabrda Ashgabadda Markaziy Osiyo davlat boshliqlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi.

¹ O'zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Uchinchi kitob.-Toshkent: Sharq, 2000.-B.420.

Uchrashuvda Tajan-Seraxs yo'l qurilishi bo'yicha bitim imzolandi. Uni O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston Prezidentlari imzoladilar. Temir yo'l qurilishi haqidagi bu bitim yagona Osiyotrans magistralini yaratishda muhim ahamiyatga egadir. Besh davlat boshliqlari Chernobil halokati, Orol fojiasi oqibatlarini tugatish masalasida birgalikda harakat qilish haqida qaror qabul qildilar. Halokat zonalari aholisiga tezlikda insonparvarlik yordami jo'natishga ahslashdilar. 1993-yilning 4-yanvarida Islom Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkent uchrashuvi tashki etildi.

Oliy darajadagi bu uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo'stligiga asos solindi. Besh davlat Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston rahbarlari hamdo'stlik haqidagi bitimga imzo chekishdi. Shu tariqa jahon siyosiy so'zligida «Markaziy Osiyo» degan yangi atama yangi mazmun bilan paydo bo'ldi.

Hamdo'stlikka a'zo bo'lgan mamlakatlar xalqaro huquq normalariga to'la amal qilgan holda davlat tizimiga, boshqaruv usuliga va bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, har bir davlat Konstitutsiyasini hurmat qilish va tan olish, faqat iqtisodiy va madaniy hamkorlikni yo'lga qo'yish, yagona bozor, mol ayriboshlash imkoniyatlarini kengaytirish, bojxona va chegaralardagi sun'iy to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari ko'rib chiqildi.

Ayni paytda Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan davlatlarda o'ziga xos tabiiy ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Sobiq SSSR davrida qazib olingan ko'mirning qariyb 20 foizi, gazning 18 foizi, oltinning 33 foizi, o'simlik yog'ining 26 foizi, paxtaning 92 foizi ana shu mintaqqa hisobiga to'g'ri keladi. Shu masalaning o'zidayoq boy, dehqonchiligi taraqqiy topgan, xazinalari behisob bo'lgan mamlakatlarning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish qanchalik samarali ekanligi ko'zga yaqqol tashlanadi.

Uchrashuvda 1992-yilda Tojikistonda boshlangan birodarkushlik urushi to'g'risida fikr almashindi va Tojikistonga yordam berishga kelishildi. Mintaqalari havfsizligini mustahkamlash yuzasidan maslahatlashib olindi.

Bundan tashqari, tomonlar bir-birlariga elchilar yuborishga ahslashdilar. Orolni saqlab qolish xalqaro jamg'armasini tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Yagona mintaqalari bozorini vujudga keltirish, don, energetika bo'yicha hamkorlik qilishga kelishildi. Fors ko'rfazi, Tinch okeanga chiqish masalalari muhokama qilindi. Xullas, Markaziy Osiyo Respublikalari boshliqlarining Toshkent uchrashuvi tarixiy voqeasi sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi¹.

1993-yil 26-martda Qizil O'rdada Markaziy Osiyo davlat boshliqlarining Rossiya davlat delegatsiyasi ishtirokida birinchi anjumani bo'lib o'tdi.

Orolbo'yi muammolarini hal etish, Orol mintaqasini sog'lomlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash to'g'risida bitim imzolandi. Orol dengizi havzasasi muammolari bilan shug'ullanuvchi davlatlararo Kengash tuzildi. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sis etildi. N. Nazarbayev bir yil muddatga shu jamg'armaning Prezidenti etib saylandi.

Uchrashuv qatnashchilari Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston va Rossiya nomidan BMT Bosh kotibi Butros G'oliyga maktub yo'llab, Orol bo'yidagi murakkab ahvol va ro'y bergan muammolarni hal etish uchun belgilangan chora-tadbirlar haqida, shuningdek, Orol dengizi havzasasi muammolarini hal qilishga jahon hamjamiyatining diqqat-e'tiborini jalb qilish zarurligi to'g'risida uni xabardor etdilar.

1993-yil 28-iyulda Almatida Qozog'iston va O'zbekiston o'rtaida 1994-2000-yillarda iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida bitim imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtaida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o'tib turishini

¹ Jo'raev N. Yuksalish.-Toshkent: O'zbekiston, 1995.-B.57.

nazarda tutuvchi hamda o'zaro kelishilgan kredit hisob-kitob, byudjet, soliq, narx, boj va valyuta siyosatini ta'minlovchi yagona iqtisodiy makonni tashkil etish to'g'risida shartnoma imzolandi.

1994-yil 11-yanvarda Nukusda Markaziy Osiyo mamlakatlari boshliqlarining Rossiya Federatsiyasi davlat delegatsiyasi ishtirokida ikkinchi konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Anjumanda Orol dengizi havzasidagi hozirgi ahvol bilan bog'liq ko'pgina masalalar, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi mablag'lari qanday to'planayotganligi muhokama qilindi, uning faoliyati ma'qullandi. Ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan yaqin 5-yil ichida bajarilishi lozim bo'lgan muayyan vazifalar belgilandi. Orol dengizini qutqarish bo'yicha davlatlararo Kengash Nizomi tasdiqlandi hamda uning Ijroiya organining rahbari tayinlandi.

O'zbekiston rahbariyati mintaqadagi mamlakatlar va xalqlar o'rtasida teng huquqli, o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatib uni mustahkamlash va rivojlantirish tadbirlarini izchillik bilan amalga oshirib bormoqda. Tojikiston xalqi boshiga musibat tushganda O'zbekistonning bergen siyosiy va iqtisodiy madadi, beshta mamlakatni O'rta Yer dengizi, Hind okeani, Tinch okean bilan bog'lovchi temir yo'llar qurilishida hamda Orolni qutqarish harakatida O'zbekistonning faol ishtiroki fikrimizning dalilidir¹.

1994-yil 16-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi bilan Qирг'изистон Respublikasi o'rtasida yagona iqtisodiy makon to'g'risida shartnoma imzolandi. 1994-yil 30-aprelda Cho'lponota shahrida O'zbekiston, Qozog'iston, Qирг'изистон o'rtasida Yagona iqtisodiy makon tuzish to'g'risida uch tomonlama shartnoma imzolandi.

Uch qardosh mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlik yangi pog'onaga ko'tarildi.

O'zbekiston, Qozog'iston va Qирг'изистон Prezidentlarining 1994-yil 8-iyul Almati shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvi ham bu uch qardosh mamlakatlar

¹ Mavlonov O., Mahkamova D. Madaniy aloqalar va savdo yo'llari.-Toshkent: Akademiya, 2004.-B.132.

xalqlari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda yana bir yangi qadam bo'ldi. Unda o'zaro integratsiyani kuchaytirish bo'yicha, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki to'g'risida bitimlar imzolandi. Tomonlar davlatlararo Kengash hamda uning doimiy Ijroiya organini, shuningdek, Bosh Vazirlar Kengashi, Tashqi ishlar vazirlari Kengashi, Mudofaa vazirlari Kengashini ta'sis etdilar. Bunday yagona muvofiqlashtiruvchi boshqaruva organlarining paydo bo'lishi O'zbekiston,

Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida integratsiya uchun huquqiy zaminni mustahkamladi. Yaxlit iqtisodiy makonning barpo etilishi bu hududda yashayotgan xalqlar o'rtasidagi do'stlikni yanada mustahkamlashga, ularning mustaqil taraqqiyotiga ko'maklashadi. 1995-yilning yanvar oyida Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev Toshkentga keldi. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikka doir bitim va qator hujjatlarga imzo chekildi. Tez orada bu bitimga Qirg'iziston ham qo'shildi. Natijada uch mamlakat o'rtasida yagona bozorni vujudga keltirish, mahsulot ayriboshlash imkoniyati yaratildi.

1995-yil 3-martda Toshhovuzda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Unda N.Nazarboyev Orol dengizini qutqarish bo'yicha xalqaro jamg'arma faoliyati haqida ma'ruza qildi. Mazkur jamg'armaga mablag' ajratish masalalari ko'rib chiqildi. Jahon banki, Yevropa Ittifoqi, Yevropada Havfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti jamg'armani qo'llab-quvvatlayotgani ta'kidlandi. Orol dengizini qutqarish bo'yicha davlatlararo Kengash ijroiya qo'mitasining faoliyati amalga oshirilayotgan ishlar, rejalar muhokama qilindi.

Toshhovuz uchrashuvida Markaziy Osiyo respublikalari Prezidentlari Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligini chuqurlashtirish masalalarini ko'rib chiqdilar va qo'shma Bayonet imzoladilar. Unda: «Har bir davlatning o'z taraqqiyot yo'lini, davlat va jamiyat qurilish andozalarini tanlab olish huquqini e'tirof etamiz, o'zimizning bir-birimizga nisbatan maqsadlarimiz birligiga

shubha uyg'otuvchi, nodo'stona kuchlar manfaatiga xizmat qiluvchi bayonotlardan tiyilib turishga tayyor ekanimizni bayon etamiz», deyiladi. Qo'shma Bayonotda demokratik qadriyatlarga asoslangan, ekstremizmning siyosiy, diniy va boshqa shakllarini rad etadigan adolatli jamiyat barpo etamiz, bir-birimiz bilan hamda boshqa mamlakatlar bilan ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama hamkorlik qilamiz, deb ta'kidlandi¹.

1995-yil 14-aprel kuni Chimkentda O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston Prezidentlarining uchrashuvi bo'ldi.

Tojikiston va Afg'oniston chegarasidagi vaziyat haqida maslahatlashib olindi. Qabul qilingan Bayonotda Tojikiston muholifat kuchlari tomonidan 1995-yil 7-aprelda qilingan qon to'kishga olib kelgan hujum qoralandi. Hujum natijasida qurbon bo'lgan rossiyalik, qozog'istonlik, tojik chegarachilar oilalariga ta'ziya bildirildi. Bayonotda mojaroni tinch yo'l bilan, kelishuv yo'li bilan hal etish lozimligi ta'kidlandi.

Tojikistonda milliy totuvlikka erishish, tinchlikni mustahkamlashda BMT, YHHT, MDHni hamkorlik qilishga chaqirildi.

Uch davlat boshlig'i Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasini jadallashtirish bo'yicha kommyunikeni imzoladilar. Bu borada 2000-yilgacha dastur ma'qullandı.

Uchrashuvda davlatlararo Kengash va Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki («Centrazbank»)ning axborotlari tinglandi. Uch davlat Prezidentlari mintaqalari barqarorligini ko'zlab, BMT homiyligida tinchlikni ta'minlovchi birlashgan batalon tuzish maqsadga muvofiq deb ta'kidladilar va o'z hukumatlariga, Mudofaa vazirlariga bu borada davlatlararo Kengashga aniq takliflar kiritishni topshirdilar.

1995-yil 15-dekabrda Jambulda o'tkazilgan davlatlararo Kengashning navbatdagi majlisida, 1997-yil 9-10-yanvar kunlari Bishkekda va 1997-yil 12-

¹ Mavlonov O., Mahkamova D. Madaniy aloqalar va savdo yo'llari.-Toshkent: Akademika, 2004.-B.144.

dekabr kuni Qozog'iston Respublikasining yangi poytaxti Ostana (Oqmola) shahrida o'tkazilgan O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston davlat boshliqlarining Kengashlarida iqtisodiy integratsiya, sarmoya sarflanishi lozim bo'lgan dasturlarni hayotga joriy etish, uch mamlakat o'rtaida energetika, suv zahiralaridan oqilona foydalanish, oziq-ovqat ta'minoti, kommunikatsiya hamda mineral xomashyo zahiralarini o'zlashtirish va qayta ishslash sohalari bo'yicha xalqaro konsorsiumlar tuzish bo'yicha tomonlar konsepsiysi ma'qullandi, uch qardosh davlat o'rtaida abadiy do'stlik haqida shartnoma imzolandi.

1998-yil 5-6-yanvar kunlari Ashgabadda Turkmaniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston Prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi¹.

Uchrashuvda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtaida munosabatlarning hozirgi ahvoli va istiqbollari, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotning eng muhim yo'nalishlari bo'yicha hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, uchrashuv chog'ida neft va gaz uzatish, transport hamda kommunikatsiyalar tarmoqlarini rivojlantirish masalalari ham qarab chiqildi. Xalqaro va mintaqaviy siyosatning tomonlarni qiziqtiruvchi jihatlari bo'yicha fikr-mulohazalar bildirildi.

Besh davlat boshliqlarining Qo'shma bayonoti imzolandi. Tomonlar mazkur Bayonot orqali o'z siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash yo'lini qat'iyat bilan davom ettirajagini bildirdilar. Beshala davlatning milliy manfaatlariga, mintaqadagi havfsizlik va barqarorlikka mos keladigan do'stona, teng huquqli va o'zaro foydali munosabatlarni chuqurlashtirishga sodiq ekanligi tasdiqlandi. Tomonlar mintaqadagi integratsiya jarayonlarini rivojlantirishda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtaida yagona iqtisodiy makon barpo etish to'g'risidagi Shartnomaning muhimligini ta'kidladilar. Tojikiston Prezidenti I.Rahmonov mazkur yagona iqtisodiy hududga Tojikiston ham qo'shilishini bildirdi.

¹ O'zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Uchinchi kitob.-Toshkent: Sharq, 2000.-B.365.

1998-yil 26-martda Toshkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtaсидаги давлатлараро Кенгаш мајлиси бо'lib о'tdi. Unda Tojikiston Prezidenti I.Rahmonov ham ishtirok etdi.

Kengashda yagona iqtisodiy makon barpo etish to'g'risidagi shartnoma doirasida olib borilayotgan hamkorlik, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtaсида 1994-yil 30-aprelda imzolangan yagona iqtisodiy makon barpo etish to'g'risidagi shartnomaga Tojikiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risidagi protokol imzolandi. Kengashda mintaqaviy integratsiyani yanada chuqurlashtirish to'g'risida to'rt davlat rahbarlarining Bayonoti, xalqaro suvenergetika konsorsiumi to'g'risidagi qaror, to'rt mamlakat o'rtaсида qimmatli qog'ozlar bozorini shakallantirishning umumiylari to'g'risida bitim imzolandi.

Islom Karimov tashabbusi bilan 2000-yil 20-21-aprelda Toshkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Muloqot chog'ida mintaqqa mamlakatlari havfsizlik organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini kengaytirishning huquqiy poydevorini yaratish bilan bog'liq masalalar bo'yicha fikrlashib olindi. Bu masalaning nechog'lik katta ahamiyatga ega ekanligini jangari ekstremistik kuchlarning 1999-yilda Qirg'izistonning Botken tumaniga bostirib kirganligi bilan bog'liq qonli fojialar ochiq-oydin ko'rsatgan edi. Shu boisdan ham Sammit qatnashchilar xalqaro terrorchilik, diniy va siyosiy ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik, mintaqqa barqarorligiga tahdid soluvchi boshqa omillarga qarshi hamkorlikda kurash to'g'risidagi shartnomaga imzo chekdilar. 2000-yil 20-avgustda Bishkek shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyodagi to'rt davlat boshliqlarining Kengashini Toshkent Sammitining bevosa davomi bo'ldi, deb atasa bo'ladi. Bu galgi uchrashuvda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlaridan tashqari Rossiya Federatsiyasi havfsizlik kengashi

kotibi S. Jvanov ham qatnashdi. Buning sababi shundaki, Markaziy Osiyo mintaqasida ekstremistik jangari kuchlar bilan bog'liq qonli fojialarning sodir etilganligi Checheniston va Afg'onistonda kechayotgan voqealar zanjirining bir bo'lagi sifatida baholandi. Shu bois, ularga qarshi birlashib kurash olib borish fursati yetganligini Bishkek uchrashuvi qatnashchilari qayd etdilar. Uchrashuv yakunida Bayonot qabul qilindi. Unda jumladan bunday deyilgan edi: «Biz BMT Xavfsizlik Kengashi, YHHT, Islom Konferensiyasi Tashkilotiga, dunyoning barcha mamlakatlariga yana bir bor murojaat etib, xalqaro terrorchilik va ekstremizmni faqat keskin qoralash bilan cheklanib qolmay, balki quruq bayonotlardan ushbu global tahdidni tag-tomiri bilan sug'urib tashlashga yo'naltirilgan muvofiqlashtirilgan amaliy harakatlarni ishlab chiqishga da'vat etamiz». Uchrashuv chog'ida I.Karimov haqli suratda ta'kidlagani singari dunyoning boshqa hududlaridagi mojarolarni darhol bostirishga harakat qilgan (Iraq-Quvayt, Bosniya mojarolari) BMT, NATO singari nufuzli xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar 20 yildan ortiq davom etib kelayotgan Afg'oniston mojarolariga va Tojikiston muammolariga e'tiborsizlik qilishayotgan edilar. 2001-yilning birinchi haftasida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlarining Almati shahrida uchrashdilar. Muloqot chog'ida mintaqaviy hamkorlikning ahvoli, uning istiqbollari atroficha tahlil qilindi. Xususan, iqtisod, fan-texnika borasidagi hamkorlik, mintaqada tinchlikni, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash, terrorizm, diniy ekstremizm, narkotik moddalarning noqonuniy olib kirishga qarshi birgalikda kurashish yuzasidan o'zaro fikr almashildi¹.

Majlisda Islom Karimov Markaziy Osiyo Respublikalari Iqtisodiy Hamjamiyati Forumini chaqirish to'g'risida taklif kiritdi. Mazkur taklif Sammit qatnashchilari tomonidan yakdillik bilan ma'qullandi. 2002-2003-yillarda ushbu Sammit o'z ishini davom ettirdi. I.Karimov o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq,

¹ O'zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Uchinchi kitob.-Toshkent: Sharq, 2000.-B.420.

tojik, turkman va mintaqada yashovchi barcha boshqa xalqlar o'rtasidagi qadimiy do'stlik aloqalarini yangi sharoitda mustahkamlashni nazarda tutib «Turkiston - umumiy uyimiz» degan g'oyani ilgari surdi. Mintaqaga jamoatchilik vakillarini, birinchi navbatda, ijodkor ziyorolar-yozuvchilar, tarixchilar va boshqalarning e'tiborini Turkiston tarixiy birlik tuyg'usini qaytadan tiklashga qaratdi. I.Karimov tomonidan 1995-yil 5-mayda Oliy Majlis ikkinchi sessiyasida «Turkiston-umumiy uyimiz» shiorining ilgari surilishi, uning mazmuni va ko'zlangan maqsad mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdir. Markaziy Osiyo Hamdo'stligi mamlakatlari jahonning boshqa ittifoqdosh va mintaqaviy hamkorlik mamlakatlaridan farqli o'laroq ma'naviy va madaniy hamkorlikka ko'proq asoslanadi. Chunki, bu hududda asrlar mobaynida ma'naviyat, ahloq, ta'lim-tarbiya va madaniyat uyg'un holda turmush tarziga aylangan. Ahloq har qanday sharoitda ham insoniylik va insoniy barkamollikning bosh tamoyili sifatida tan olingan. Qolgan barcha harakatlar va mezonlar, jumladan, iqtisodiy hamkorlik, o'zaro yordam, bozor munosabatlari, savdo-sotiq, mol ayiriboshlash ham qadimdan yuksak ahloq va odobga tayangan madaniy munosabatning bir qismi hisoblangan. Xalqlarimiz dunyoqarashi, maqsad va intilishlarini ifoda etgan xalq og'zaki namunalari ana shu zamin ahlining butun ruhiyatini qamrab olgan. Jumladan, o'zbek, qozoq va qoraqalpoq xalqlarida «Alpomish», Turkmaniston, Ozarbayjon va O'zbekistonda «Go'ro'g'li» dostonlarining, qirg'izlarda «Manas» xalq eposining vujudga kelishi, ularda qariyb bir xil - ezgulik bilan yovuzlik, yaxshilik bilan yomonlik kurashida to'g'rilik vaadolatning tantanasi, donishmandlik, aql-idrok, xushxulq va xushfe'lllik asosiy g'oya qilib olinganligi ana shu xalqlar qarashlarining uyg'unligidan dalolat beradi. Ulkan ma'naviy yodgorlik - «Avesto»dagi, yozma adabiyotda - Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridagi singari falsafiy-ahloqiy g'oyalar, tojiklarda Umar Xayyom, Firdavsiy, Xusrav Dehlaviy, Rudakiy, Sa'diy, Sheroziy, o'zbeklarda Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Xorazmiy,

Alisher Navoiy, qozoqlarda Abay, turkmanlarda Maxtumqulilarning buyuk insonparvar g'oyalari dunyo madaniyati taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligini vujudga keltirish, ularning suverenitetini hurmat qilgan holda, qadimdan hamkor-u hamfikr bo'lib kelgan xalqlarni yaqinlashtirish va shu asosda o'tish davri murakkabliklarini yengish eng hayotiy, eng ishonchli va eng samarali usuldir. Bu ayni paytda yuqorida tilga olingan ulug' ajdodlarimiz qarashlariga va mintaqqa xalqlari maqsadlariga to'la mos keladi. Shuning uchun ham Islom Karimov bunday hodisani o'z vaqtida chuqur baholadi va dolzarb masala qilib ko'tardi. Markaziy Osiyoda hududiy joylashishi jihatidan ham, yer osti va yer usti boyliklariga egaligi, xullas, iqtisodiy ko'lam va madaniy darajasi jihatidan ham O'zbekiston Markaziy Osiyoda alohida mavqega ega. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosiy yo'li aniq. Bu yo'l mintaqada yaxlit iqtisodiy hududni vujudga keltirish va rivojlantirishdan iborat. I.Karimov Oliy Majlisning 1995-yil 23-fevraldag'i bиринчи sessiyasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarni belgilab shunday degan edi: «Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama o'zaro hamkorlik milliy havfsizlikning asosiy shartlaridan biridir. Xalqlarimiz tarixi, madaniyati an'analari, diniy e'tiqodining mushtarakligi mamlakatlarimiz o'rtaсидаги amaliy hamkorlik va hamjihatlikning muhim poydevori hisoblanadi. Bizning maqsadlarimiz bir, taqdirimiz bir. Bizda milliy munosabatlarda keskinliklar yo'q, hal qilib bo'lmaydigan voqealar ham yo'q». Markaziy Osiyo xonadoni - qadimiy xonodon. U o'z shonli tarixiga, buyuk an'analarga, dunyoviy madaniyatga ega bo'lgan ulkan va fayzli oila. Ana shu mintaqada mavjud bo'lgan tarixiy an'analarni davom ettirish, ularni yangi tarixiy sharoitlarda boyitib borish, kelgusi avlodga har tomonlama yetuk, barkamol jamiyatni meros qoldirish hammamizning burchimiz. Mintaqqa ziyolilari, Turkiston zaminida yashovchi barcha xalqlarni yaqinlashtirish maqsadida yurgan sog'lom kuchlar bu g'oyani qo'llab-quvvatladilar. «Turkiston - umumiyl uyimiz» deb nomlangan

jamoatchilik harakati tashkil topdi. 1995-yil 21-noyabrdada Toshkentda Markaziy Osiyo ziyorilari ishtirokida «Qardosh xalqlar uchrashuvi» mavzuida Xalqaro qurultoy bo'lib o'tdi¹. Qurultoyda «Turkiston - umumiy uyimiz» harakatini birinchilardan bo'lib qo'llab-quvvatlagan mashhur qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov ma'ruza qildi. Ma'ruzachi va so'zga chiqqan qardosh xalqlar vakillari mintaqada yashab o'tgan ajdodlarimiz ruhi bilan olis istiqbolda tug'ilajak avlodlar bog'liqligi, mintaqqa yaxlitligi, yagona Turkiston tuyg'usining muqaddasligi haqida so'zladilar. Qurultoyda «Turkiston xalqlari madaniyati Assambleyasi» tashkil etildi. Chingiz Aytmatov uning prezidenti etib saylandi. Assambleyaning qarorgohi Toshkent shahrida bo'lib, Bishkek va Almatida uning bo'limlari tashkil etildi. 1997-yilda Bishkekda «Mustaqillik vaziyatida ma'naviyat masalasi» mavzuida simpozium bo'lib o'tdi. Simpoziumda qardosh xalqlar ma'naviyatining yangi sharoitdagi holati va rivojlantirish muammolari haqida qimmatli fikrlar bildirildi. 1997-yil aprel oyida Toshkentda taniqli qozoq adibi Muxtor Avezov ijodiga bag'ishlangan «Muxtor Avezov va o'zbek adabiyoti» mavzuida ilmiy konferensiya bo'ldi. o'sha yili may oyida «Mustaqillik-baxtimiz, toleimiz, kamolimiz» mavzuida mushoira, «Markaziy Osiyo mustaqil davlatlari xalqlari she'riyatining buguni va ertasi» mavzuida davra suhbatি bo'lib o'tdi. 1997-yil oktabrda Assambleya Almatida «Muxtor Avezov va jahon adabiyoti» mavzuida uning 100 yilligiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya o'tkazdi. 1997-yil oktabr oyidan boshlab Assambleya tashabbusi bilan 8 sahifalik «Markaziy Osiyo madaniyati» nomli haftalik gazeta o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik va rus tillarida chiqarilmoqda. Bu tadbirlar mintaqqa xalqlari o'rtasidagi azaliy do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlash va chuqurlashtirishga ko'maklashmoqda. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mustaqil O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi olamshumul ahamiyatga ega hodisa hisoblanadi. Mamlakatning geosiyosiy vaziyati uning

¹ Abdullayev Sh. Qardosh xalqlar uchrashuvi //Xalq so'zi.-1995.-22 noyabr.

taraqqiyotini belgilaydigan omillardan hisoblandi. O'zbekiston Respublikasi o'zining qat'iy qilib belgilab olingan tinchliksevar tashqi siyosatiga ega. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlaboq, teng huquqlilik asosida malga oshirilmoqda. O'zbekiston Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasida etakchilik qilib kelmoqda.

2.2 Markaziy Osiyoda shakllanayotgan yangi iqtisodiy tuzilmalarning vujudga kelishi va istiqbollari.

Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari bevosita ularning kelajakda o'zaro integratsiyaga hamda Xalqaro tashkilotlarga a'zoligi qolaversa, qo'shni davlatlar xususan Rossiya, Xitoy hamda G'arb davlatlari bilan bo'ladigan munosabatlariga bog'liqdir. Yuqorida Integratsiya masalasini tahlil qilib chiqqanligimiz sababli , Markaziy Osiyoning qo'shni va G'arb davlatlari bilan aloqalarini kelajakdagi istiqbollarini ko'rib chiqamiz.

Xitoyning kelajagi Markaziy Osiyo bilan bog'liqligi tabiiydir. Bunga asosiy isbotlardan biri Xitoyning neft va gazga bo'lgan istemolining yuqoriligidadir, hozirda Xitoy AQSH dan keyingi dunyoning eng katta neft istemolchisi bo'lib qolmoqda(yiliga 355 mln tonna) . 2020 - yilga kelib bu ko'rsatgich 500 mln tonnaga yetishi bashorat qilinmoqda. Ya'ni qo'shimcha 240 mln tonna neftni Xitoya yetkazib beruvchi yagona manba bu Markaziy Osiyo davlatlaridir. Bundan tashqari, Xitoy hukumati uglevodorod sotib olinishi va ko'chirib o'tkazish vositalarini ko'p tomonlama tarqatishga intilmoqda. Xitoya qo'yiladigan energoresurslarning asosiy ta'minotchilari siyosiy beqaror davlatlar, hamda neftning 70% dan, 80% gacha neft mahsulotlari AQSH qo'l ostida bo'lgan Makklak bo'g'ozidan keladi. Markaziy Osiyo mintaqasidan ko'chirib o'tkazish boshqa mintaqalarga nisbatan havfsizroqdir, shuning uchun ham truba yo'llari qurilmoqda. Kelajakda Xitoy o'zining Markaziy Osiyo quruqlikdagi magistral yo'lini Shimoliy Erongacha, undan so'ng Yaqin Sharq mintaqasiga kengaytirmoqchi¹.

Hozirda, Xitoyning Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan olib borayotgan tashqi siyosati asosan ushbu xuddiddagi neft va gazga kiritiladigan investitsiyalar bilan bog'liqdir. Bugungi kungacha, Qozog'iston va G'arbiy Xitoy o'rtasida 988

¹ Жалилов А. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти. Маъruzalар матни. Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия Университети. -Тошкент: 2002. -Б.73.

kilometrli gaz trubalari yotqizilgan bo'lib, Xitoy tomonidan 800 mln dollar investitsiya kiritilgan edi. 2009-yildan esa O'zbekiston va Qozog'iston orqali o'tuvchi yiliga 30 mlrd kub gaz o'tkazish sig'imiga ega Turkmaniston – Xitoy gaz quvurlari faoliyatini boshladi. Bundan tashqari, 2009 yilning iyul oyida Xitoy tomonidan O'zbekistonga keyingi 5 yilga gaz va neft konlarini qidirish ishlariga 210 mln dollar ajratildi. Kelajakda, xususan keyingi 20 yil ichida Qirg'iziston-O'zbekiston-Qozog'iston-Xitoy temir yo'li va magistral yo'llar (highways) qurilishi rejalashtirilgan. Markaziy Osiyo Pekin uchun Eronga undan so'ng Yevropaga chiqish imkonini beradigan quruqlik yo'lidir. Ushbu yo'ldan Xitoyning keng foydalanishi nafaqat Xitoy va Yevropa davlatlari o'rtaсидаги munosabatlarning rivojlanishiga balki, Xitoy mahsulotlarining Yevropa davlatlariga yetib borishini tezlashtiradigan magistral yo'l hisoblanadi. Shanxay universiteti professori Wang Jiang Ping ning ta'kidlashicha, Xitoy Markaziy Osiyoni malakali ishchilar hamda so'nggi zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlashda asosiy manba vazifasini o'tashi mumkin.¹

Yevropa ittifoqi 2010-yilning aprel so'ngra avgust oylaridagi Qirg'izistondagi voqealardan keyin Markaziy Osiyoga nisbatan yangi strategiya ishlab chiqishiga to'g'ri keldi. Bu strategiyani ishlab chiqish uchun uch yil muddat ketganligi aytib o'tiladi. Yevropa ittifoqining Markaziy Osiyoga nisbatan ilk strategiyasi 2007-yil Germaniya tomonidan ishlab chiqilgan edi. Unga ko'ra, asosiy e'tibor mintaqqa davatlari bilan siyosiy va iqtisodiy hamkorlik, savdo aylanmasini kengaytrish hamda energetik hamkorlikni rivojlantirish va boshqa tabiiy resurslarni importi, ularni tadqiq qilishda hamkorlik qilish kabi muhim yo'nalishlar ta'kidlangandi. Yangi strategiya Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligidagi muhim omillarni sanab o'tadi, bular qatorida 2009-yil noyabr oyida imzolangan Nabukko loyihasi va Kaspiy rivojlanish korridorining Yevropa ittifoqining

¹ China's Central Asia Policy in Recent Times.-B.150.

janubiy energiya koridorini energiya bilan ta'minlashida muhim ahamiyat kasb etishi yuqori baholanadi. Bundan tashqari Qozog'istonning YHHTga 2010-yilgi raisligi, Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo davatlari bilan asosan ta'lim va atrof-muhitni muhofaza qilish borasida yaxshi hamkorliklarga erishilganligi va Yevropa Ittifoqining mintaqasi davlatlari bilan kengroq doirada hamkorlik qilishga intilayotganligini ham qayt etib o'tishimiz kerak. Yevropa Ittifoqi hozirda diqqatini qaratayotgan yana bir muhim yo'nalish bu CAREC (Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik) dasturi bilan hamkorlikni rivojlantirish va transport kommunikatsiya masalalarini hal qilishdan iborat¹.

Mutahassislar fikricha Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyoga nisbatan uchta yo'nalishda o'z hissasini qo'shishga intilmoqda, bular: *Afg'on muammosi, suv rerurslaridan foydalanish va Qirg'iziston inqirozi*. Mintaqadagi suv resurslaridan foydalanishda esa Yevropa Ittifoqi mintaqadagi suv muammosi hozirgi kunda Markaziy Osiyo uchun eng katta xafv tug'dirishi mumkin bo'lgan, hattoki qurolli to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin bo'lgan dolzarb masala sifatida qaraladi. Bu masalani yechimini topishda esa mintaqasi davlatlari tajribali davlatlar bilan hamkorlik qilishlari kerakligi, Tojikiston va Qirg'iziston Amudaryo va Sirdaryoni quyi oqimida joylashgan davlatlar bilan hisoblashgan holda transchegaraviy suvlar taqdirini hal qilishlari kerakligi yangi strategiyada aytib o'tiladi. Ayniqsa bu vaziyat O'zbekiston uchun bu salbiy natijalarni keltirib chiqarishi haqida ta'kidlab o'tilgan. Yevropa Ittifoqi 2011-2013-yillarga mo'ljallangan o'z dasturida o'zining hamkorlik yo'nalishini uchta yo'nalishda belgilaydi². Bular:

1. *Barqaror mintaqaviy rivojlanishni taminlash: energetika, atrof-muhit masalalari hamda biznes hamkorlik.*
2. *Ta'lim, ilm-fan, madaniy aloqalarni rivojlantirish*

¹ Жўраев С. ва бошқалар. Халқаро муносабатлар (геосиёсат, дипломатия, ҳавфсизлик). Ўкув қўлланма – Т.: «Академия», 2006. –Б.158.

² http://eeas.europa.eu/central_asia/docs/2010_ca_mtr_en.pdf-B.16.

3. Mintaqal uchun havf soladigan muammolarga qarshi birlashtirishda kurashish, chegaravy muammolarni oldini olish

Bu qisqa muddatlarda barajarilishi kutilayotgan ushbu strategiyada Yevropa Ittifoqining mintaqadagi har bir davlat bilan hamkorlik yo'nalishlari ham aytib o'tilgan. Qashshoqlig darajasini kamaytirish va hayot standartlarini oshirish ham Yevroqa ittifoqining mintaqada olib borishi kerak bo'lgan yo'nalishlardan biri sifatida ko'rildi¹. Ularning taklifiga ko'ra bu masalada qishloq hududlardagi rivojlanish sxemalarini moliyaviy jihatdan qo'llab quvvatlash orqali amalga oshirish kerakligi taklif qilinadi.

2011-2013-yillardagi bu hamkorlikning oldinga qo'yilgan masalalari qatorida mintaqaning har bir davlati bilan olib borilishi kerak bo'lgan yo'nalishlar ham belgilab o'tilgan. Xususan Yevropa ittifoqi O'zbekiston bilan hozirgi kunda asosan qonunchilik sohasida hamkorlik qilayotganini va yangi strategiya bo'yicha ham shu yo'nalishlarda hamkorlik olib borilishi va mintaqada Qozog'istondan keyingi eng katta savdo hamkori ekanligi diqqatga sazovordir².

Qisqacha aytganda, Yevropa Ittifoqining mintaqal muammolarini hal qilishda o'zini o'rniga ega bo'lishga va bu orqali mintaqal davlatlari bilan iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalardagi aloqalarini kengayitrishga urinayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlarining kelajagi bevosita *Rossiya* bilan bog'langan bo'lib, ular o'rtaqidagi aloqalarning mazmuni va xususiyatini bir qancha omillar belgilaydi.

I- omil. Savdo-iqtisodiy aloqalar.. Rossiya Markaziy Osyoning asosiy tovarlari: xom ashyo, qishloq xo'jalik mahsulotlari, foydali qazilmalar uchun tabiiy bozordir. Markaziy Osyoning qolgan barcha qo'shnilar shu guruhga mansub tovarlarni o'zlari ishlab chiqaradilar va shu bois ular xaridorgir emas,

¹ http://eeas.europa.eu/central_asia/docs/2010_ca_mtr_en.pdf-B.56.

² http://eeas.europa.eu/central_asia/docs/2010_ca_mtr_en.pdf-B.54.

balki ko'proq mintaqaning savdo raqibi bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, mintaqaning boshqa biron bir yaqin iqtisodiy hamkor Rossiya darajasida katta va keng qamrovli bozorga ega emas. Markaziy Osiyo uchun Rossiya boshqa qo'shni mamlakatlarda bo'limgan strategik tovarlar metall, yog'och, qurilish materiallarining asosiy manbaidir. Rossiya uchun Markaziy Osiyo uning sanoat mahsulotlari to'qimachilik, qishloq xo'jalik mashinasozligi uchun tabiiy bozordir. Xullas, ikkala tarafni iqtisodiy jihatdan bir biriga tortadigan omillar juda kuchlidir. So'nggi yillarda savdo iqtisodiy aloqalar tarkibida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Markaziy Osiyo jahon energiya resurslari bozorining tarkibiy qismiga aylanib borayotir. Shu sohadagi yetakchi davlatlardan biri bo'lgan Rossiya buni hisobga olmasligi mumkin emas, albatta. Markaziy Osiyodan Rossiyaga ishchi kuchi migratsiyasining kuchayishi ham qayd etilmoqda. Bu ikkala taraf uchun ham muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda.

2-omil. transport kommunikatsiyalari. Mintaqalari uchun shimoliy strategik transport yo'nalishi dengiz portlariga olib chiqadigan temir yo'llarga ega yagona yo'nalish hisoblanadi. Kelajakka nazar tashlaydigan bo'lsak, Afg'oniston orqali o'tadigan transport yo'lagining rivojlanishi Rossiyani Janubi-Sharqiy Osiyo, Hind okeani va Fors ko'rfazining portlari bilan bog'lovchi yangi yo'llar vujudga kelishini anglatadi.

3-omil. Rossiya va Markaziy Osiyoni *hayfsizlik* va *xalqaro hayf-xatarlarga qarshi kurash* sohasidagi umumiy manfaatlar bog'laydi. 20 million muslimon yashaydigan Rossiya radikal islomga qarshi bevosita kurash olib bormoqda. Markaziy Osiyo, avvalo Afg'onistondagi terrorchilik guruhlari Chechenistondagi tuzilmalar bilan aloqa qilayotgani ma'lum. Bugungi kunda narkobiznes katta muammo bo'lib qolayotir. Rossiyada bu muammoni Markaziy Osiyodagi xarakatlarsiz xal qilib bo'lmaydi. Nihoyat, geostrategik nuqtai nazardan Rossiya *Markaziy Osiyoda boshqa davlatning harbiy-siyosiy hozirligi*

kengayishidan manfaatdor emas. Markaziy Osiyoda o’z ta’sirini yo’qotish Rossiya uchun katta strategik chekinish va jahonning obro’li davlati sifatidagi mavqeini butunlay boy berish bilan barobardir.

2017-yilning 12 noyabr kuni Samarqandda bo‘lib o‘tgan xalqaro anjumanda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyoning taraqqiy etishi va gullab-yashnashiga xizmat qiluvchi olti muhim vazifalarni sanab o‘tdi.

Markaziy Osiyo davlatlari aynan yaxshi qo‘schnichilik va o‘zaro manfaatlari hamkorlik tamoyillari asosida eng dolzarb va muhim masalalarda o‘z salohiyatini yanada samarali amalga oshira oladi. Ishonchim komil, bundan barcha — Markaziy Osiyo davlatlari qatorida boshqa mamlakatlar ham birdek manfaat ko‘radi¹, dedi Samarqanddagi Markaziy Osiyo mintaqasiga bag‘ishlangan xalqaro anjumanda so‘zlagan nutqi davomida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Mirziyoyev Markaziy Osiyonini yaqin kelajakda barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishga xizmat qiladigan olti taklifni ilgari surdi.

Birinchi taklif: Biznes-diplomatiya

Savdo-iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish va tovar ayirboshlash hajmini oshirish hamda kooperatsiyani mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish, kerakligini mintaqaviy iqtisodiy forumni tashkil etishni taklif qildi.

Ayni vaqtda Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy iqtisodiy forumini tashkil qilishni taklif etdi.

Markaziy Osiyo davlatlarining hududlar rahbarlari (hokimlari) biznes hamjamiyatining assotsiatsiyasini ta’sis etishni, BMT ekspertlarining hisob-kitoblariga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi samarali

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Мирзиёев Ш.М. нинг Самарқанд шаҳрида ўтган “Марказий Осиё ягона тарих ва умумий келажақ, баркарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги хамкорлик” мавзусидаги ҳалқаро конференцияда сўзлаган нутқи president.uz/uz/lists/view/1227.

kooperatsiya aloqalari 10 yil mobaynida mintaqaviy yalpi ichki mahsulotni kamida ikki barobar oshirish imkonini bergan bo‘lar edi. Ushbu mexanizmlar butun Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanishni ta’minlagan holda, mamlakatlarimiz hududlarining sanoat, investitsiya va intellektual sohalardagi salohiyatini to‘la ishga solish imkonini berishiga ishonaman”, — dedi prezident.

Ikkinchi taklif: Transport diplomatiyasi

Mirziyoyevga ko‘ra, mintaqaning tranzit-logistika salohiyatidan yanada samarali foydalanish va transport infratuzilmasining jadal rivojlanishini ta’minlash lozim.

Markaziy Osiyo G‘arb va Sharq o‘rtasidagi chorrahadan "markaz"ga aylandi - Rashid Alimov.

O‘zbekiston rahbari bu yo‘nalishda mintaqa mamlakatlari tomonidan amaliy qadamlar qo‘yilganini mammuniyat bilan qayd etdi.

"Turkmanistonlik do‘stlarimiz tomonidan Amudaryodan o‘tadigan Turkmanobod — Forob yangi temir va avtomobil yo‘llari ko‘priklari ishga tushirildi. U O‘zbekiston — Turkmaniston — Eron — O‘mon transport-tranzit yo‘nalishining muhim tarmog‘idir.

Tez orada O‘zbekiston — Qirg‘iziston — Xitoy temir yo‘li qurilishini boshlash bo‘yicha kelishuvga erishildi, shuningdek, ushbu transport yo‘lagi bo‘ylab sinov tariqasidagi avtopoyga amalga oshirildi.

Shu munosabat bilan Transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo‘yicha umummintaqaviy dasturni ishlab chiqish va qabul qilish zarur, deb hisoblaymiz".

Prezident umumiylar yondashuvlarni kelishib olish uchun 2018 yilda Toshkentda "Markaziy Osiyo xalqaro transport yo‘laklari tizimida: strategik istiqbollar va amalga oshirilmagan imkoniyatlar" mavzusida xalqaro konferentsiya o‘tkazilishi rejalashtirilayotganini aytib, konferentsiyaning ishida barcha sheriklar faol ishtirok etishiga umid bildirdi.

Uchinchi taklif: "Preventiv diplomatiya"

Mirziyoyev bugungi kunda mintaqaning barcha mamlakatlari terrorizm, diniy ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga duch kelayotgani, ushbu tahdidlarga qarshi samarali kurashishni faqat birgalikda, mintqa mamlakatlari o'rtasidagi amaliy hamkorlik mexanizmlari doirasida ta'minlash mumkinligini aytdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida 2018-2019 yillar uchun hamkorlik dasturi imzolandi.

"Xavfsizlikka tahdidlarni "o'ziniki va o'zgalarniki" deb ajratishdan voz kechish, "yaxlit havfsizlik" tamoyiliga amalda rioya qilish zarur, degan qat'iy fikrdamiz", — alohida ta'kidladi prezident.

Mirziyoyevga ko'ra, Birlashgan Millatlar Tashkiloti mintaqaviy havfsizlik muammosini, avvalo, preventiv diplomatiya usullaridan foydalangan holda hal qilishda muhim o'rinni tutishi lozim. Shuningdek, MDH, SHHT, YEXHT va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar mexanizmlari doirasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash zarur.

Shu o'rinda Markaziy Osiyoda barqaror va izchil taraqqiyotning istiqbollari qo'shni Afg'onistonda tinchlik o'rnatish bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlab o'tildi.

O'zbekiston rahbari birinchi galda Afg'onistonning mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga qo'shilishiga har tomonlama ko'maklashish kerakligi va bu dunyo hamjamiyatining Afg'onistonda tinch taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlariga g'oyat muhim hissa bo'lib qo'shilishini qayd etdi.

Mirziyoyev BMTda diniy bag'rikenglik to'g'risidagi rezolyutsiyani qabul qilish taklifini kiritdi.

Shuningdek, O'zbekiston bundan keyin ham bu qo'shni mamlakatni iqtisodiy jihatdan tiklash, uning transport va energetik infratuzilmasini

rivojlantirish, milliy kadrlar tayyorlash jarayonlarida faol ishtirok etishini ta'kidladi.

Markaziy Osiyoda barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlashning ustuvor yo'nalishi — ekstremistik g'oyalarga qarshi qat'iy kurashishdan iboratdir. Ko'pincha hayotga endi qadam qo'yayotgan yoshlar uning ta'siriga tushib qolmoqda.

Markaziy Osiyo — aholining yoshi bo'yicha eng "yosh" mintaqalardan biridir: bu yerda aholining qariyb 60 foizini yoshlar tashkil etadi va bu dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan ancha yuqoridir.

Aynan shu maqsadda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yaqinda Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan sessiyasida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konventsiyani ishlab chiqish hamda "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi.

"Ushbu tashabbuslarni Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari qo'llab-quvvatlagani yoshlar o'rtasida radikal qarashlar tarqalishining oldini olish, to'g'ri yo'ldan adashganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ularni sog'lom hayotga qaytarishga tayyorligimizning amaldagi yaqqol ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Bizning tajribamiz shuni ko'rsatmoqdaki, birinchi galda yoshlarni ilm-ma'rifatga o'rgatish, ularga islom dinining insonparvarlik mohiyati, islom madaniyatining asl qadriyatlarini yetkazish ekstremizmga qarshi kurashishning eng samarali vositasi hisoblanadi.

Bu borada biz Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Toshkentda Islom tsivilizatsiyasi markazini tashkil etishga qaror qildik", — qayd etdi Mirziyoyev.

To'rtinchi taklif: "Chegara diplomatiyasi"

Mirziyoyev davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini tezda va uzil-kesil yakuniga yetkazish kerak, deya qayd etdi.

O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston TIV rahbarlari tarixiy hujjatni imzoladilar.

"Biz chegaraoldi muammolarini hal etib, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni yanada kengaytirish yo‘lida mustahkam poydevor yaratamiz.

Biz davlat chegaralarini delimitatsiya qilish borasidagi muzokaralarda yuzaga keladigan murakkab masalalarni hal etish bo‘yicha izchil yo‘lga qo‘yilgan va birgalikda chuqur o‘ylab amalga oshirayotgan ishlarimizni davom ettirish zarur, deb hisoblaymiz.

Biz oqilona murosa va o‘zaro teng almashinuv asosida, o‘zaro manfaatlarimizni hisobga olgan holda, bu o‘ta dolzarb muammoni tez orada hal etamiz, deb ishonaman", — dedi prezident.

Beshinchi taklif: "suv diplomatiyasi"

O‘zbekiston prezidenti o‘z nutqida mintaqada suv resurslaridan adolatli foydalanish muammoini imkon qadar tezroq tartibga solish lozimligini ta’kidladi.

"Ishonchim komil, mazkur masalalarni hal etishda mintaqadagi barcha davlatlar manfaatlarini hisobga oladigan xalqaro huquqiy me’yorlar asosida ish olib borish kutilgan samarani beradi.

Alixonov: O‘zbekiston transchegaraviy suvlardan adolatli foydalanish tarafidori

O‘zbekiston BMT tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to‘g‘risidagi konvensiyalar loyihibalarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Orol dengizining ekologik halokati bilan bog‘liq eng o‘tkir muammolarni hal etish ham sa’y-harakatlarimizni birlashtirishni talab etadi. Orol muammosi bizning nafaqat umumiy dardimiz, balki umumiy vazifamizdir.

Mintaqaviy va xalqaro darajada say’-harakatlarimizni birlashtirmasdan turib, ushbu tahdidlarga qarshi munosib choralar ishlab chiqa olmaymiz.

Biz Orolbo‘yida yuzaga kelgan dolzarb muammolarni hal etish, shuningdek, ijtimoiy muhim ahamiyatga molik loyiha va dasturlarni amalga oshirishga donorlik ko‘magini jalb etish maqsadida Markaziy Osiyo mintaqasining barcha davlatlari faoliyatini yanada faollashtirish zarur, deb hisoblaymiz”.

Oltinchi taklif: "Xalq diplomatiyasi"

"Mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasida madaniy-gumanitar aloqalar, do‘slik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash lozim. Bu Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlikni jadallashtirishning asosiy shartlaridan biridir.

Mirziyoyev: Maqsadimiz – Markaziy Osiyoni gullab-yashnayotgan mintaqaga aylantirish.

Shu nuqtai nazardan, biz faol madaniy-gumanitar muloqotni davom ettirish, mamlakatlarimizda madaniyat kunlari va turli ijodiy tadbirlarni muntazam tashkil etish, ta’lim va sayyohlik sohasidagi almashuvlarni "xalq diplomatiyasi"ning eng muhim vositasi sifatida rivojlantirish tarafdomiz", — dedi Mirziyoyev.¹

O‘zbekiston rahbariga ko‘ra, mintaqada do‘slik, hamjihatlik va barqarorlik muhitini mustahkamlaydigan eng ishonchli usuli bu oddiy va ochiq insoniy muloqotdir.

¹ <http://mulohaza.uz/?p=3592>

X U L O S A

“Geosiyosat” tushunchasidagi “Geo” – yer (shar), “siyosat” esa shu Kurrai zaminga doir siyosat yurgizish demakdir. Ya'ni, u muayyan davlat yoki davlatlar guruhining geografik yohud makoniy – hududiy aspektida olib boradigan siyosati bo'lib qolmasdan, shu bilan birga, umuman jahon hamjamiyatining ham, ayrim davlatlar ittifoqlari, bloklarining umumjahon miqyosida belgilaydigan parametrlari, o'lchamlari, fe'l-atvorlarini ham anglatadi. Geosiyosatga doir nazariy qarashlar 19-asr ikkinchi yarimidan boshlab G'arbiy Ovrupada vujudga kelib, geografik muhit xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynashi to'g'risidagi qarashlarni muqimlashtirishga harakat qiladi. Bunday qarashlar go'yoki yangicha yondashuvlar sifatida talqin etilsa-da, ammo ular qadimgi grek olimlarining asarlarida uchraydi.

Markaziy Osiyo atrofida kechayotgan jadal geosiyosiy jarayonlar mazkur mintaqaning yuksak geosiyosiy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat bermoqda. Zero, mintaqa havfsizligi ko'p jihatdan uning geosiyosiy ahamiyati, salohiyatini belgilovchi jug'rofiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Shu o'rinda Z.Bzejinskiy “ushbu mintaqada ustunlikni kim qo'lga kirlitsa, shubhasiz geosiyosiy va iqtisodiy yutuqni qo'lga kiritadi”, degan fikrni eslash o'rinnlidir.

Tarihiy taraqqiyot davomida uzluksiz davom etib kelgan tamaddunlar kurashi yangi ming yillikda, turli hil ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Yer yuzida yagona hukmronlik tizimini yaratish uchun olib borilgan bu kurash bir oz bo'lsada susaygani yo'q.

Amerikalik olim S.Xantington “Sivilizatsiyalar to'qnashuvi va dunyo tartibotining qaytadan qurilishi” asarida so'nggi yillarda yer o'zida kechayotgan geosiyosiy jarayonlarning eng muhim hususiyatlarini tahlil etar ekan, mazkur jarayonlar aynan Yevroosiyo qit'asi hususan, shu qit'a markazida joylashgan

o‘zak mamlakatlarga ta’sir etish va ular hududini egallash maqsadida ro‘y berayotganini ta’kidlaydi.

Ho‘s sh Markaziy Osiyo mintaqasi ushbu geosiyosiy jarayonlarga nisbatan qanday ma’sofada joylashgan? Ushbu masala bugungi kunda markaziy Osiyoning geosiyosiy mavqeyi hamda uning atrofida jadallik bilan kechayotgan geosiyosiy jarayonlarning tub mohiyatini anglashga yordam beradi.

Mintaqaning geosiyosiy mavqyeyini o‘rganish bir necha omillar hususida fikr yuritishni talab etadi. Mumtoz geosiyosiy nazariyaga ko‘ra, har bir mintaqaning geosiyosiy mavqeい quyidagalar bilan belgilanadi:

- geografik joylashuvi va tabiiy iqlim hususiyatlari;
- iqtisodiy salohiyati;
- shu hududda yashovchi xalqlarning qat’iy ravishda tabiiy-geografik omillar ta’siri ostida shakllangan mentaliteti hamda an’analari;
- ushbu hususiyatlar ta’sirida shakllangan siyosiy tuzumning tabiatи.

Biroq o‘tgan yuz yillikda mintaqalar yoki davlatlarning geosiyosiy mavqeyi ko‘pgina hollarda iqtisodiy omillar bilan belgilangan edi. Bu hol, avvalo, dunyoda energetika zahiralari iste’molining kuchayishi va ularga bo‘lgan extiyojining keskin ortib ketishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishini yoritishda quyidagi hulosalarga kelindi:

1. O‘zbekiston dunyo jug‘rofiy-siyosiy geopolitik tizimida o‘ziga hos va o‘z nufuziga ega bo‘lib, undan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlar jahondagi eng yirik davlatlar, turli jug‘rofiy-siyosiy tuzilmalarining mamlakatlariga bevosita daxldordir.

2. Markaziy Osiyoda jug‘rofiy-siyosiy jihatlari alohida o‘rin egallagan. O‘zbekiston tegishli va muvozanatini ta’minlash mintaqada hamkorlikni ta’minlashga mustahkam zamin yaratish jarayonida strategik boshqaruvchi rolini o‘ynash uchun barcha imkoniyatlarga ega.

3. O‘zbekiston qulay iqtisodiy sharoiti, ulkan mineral hom-ashyo zahiralari, qishloq ho‘jaligi mahsulotlari bilan o‘z halqi va qo‘suni mamlakatlarga yordam berish imkoniyatiga ega.

4. O‘zbekiston rahbariyati geosiyosati yo‘nalishida Markaziy Osiyo hamkorligi muammosi alohida o‘ringa egadir. Hamkor munosabatlarning shakllanishda har bir mamlakat va davlatlarining havfsizlik darajasi ularning integratsiyasi jarayonlariga qatnashish jarayonlariga bevosita bog‘liqligi deb hisoblanishi asosiy tayanch sifatida qabul qilingan. Geosiyosat konsepsiyasini ishlab chiqish bu faqat o‘zini ko‘rsatish, publistik va boshqa siyosiy maqsadlar uchun emas, eng avvalo halqlarning farovonligi uchun amalga oshirilishi lozim. Geosiyosatdagi barcha yo‘nalishlarni ana shu nazardan baholash lozim deb hisoblayman.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yhati.

I.Rahbariy adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. -Т.: “Ўзбекистон”, 1992.
2. Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. -Т.: “Ўзбекистон”.1996.
3. Каримов И. А. Ўзбекистон миллий истиқлол, иқтисод, сиёsat, мафкура, 1 -жилд.-Т.: “Ўзбекистон”, 1996
4. Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. -Т.: “Ўзбекистон”,1996.
5. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари, тараққиёт кафолатлари. – Т.: “Ўзбекистон”,1997.
6. Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби, 5-жилд. -Т.: “Ўзбекистон”, 1997.
7. Каримов И. А. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Т.: “Ўзбекистон”, 1998.
8. Каримов И. А. Биз келажагимизни ва қўлимиз билан қурамиз, 7-жилд. - Т.:”Ўзбекистон”, 1999.
9. Каримов И. А. Жамиятимиз мафкураси халқни- халқ, миллатни- миллат қилишга хизмат этсин. -Т.: “Тафаккур”, 1999. 2-сон.
- 10.Каримов И. А. Миллий истиқлол мафкураси-халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончdir. -Т.: “Ўзбекистон”, 2000.
- 11.Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч -Т.:”Маънавият”, 2008.

12. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
13. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
14. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
15. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
16. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг (бешта устивор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили”да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий услубий рисола. -Т.: “Маънавият”, 2017.
17. Мирзиёев Ш.М. “Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 19 сентябрь куни БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи.

18.

II. Asosiy adabiyotlar:

1. Аристотель. Политика. ВКН. –Мыслители Греции. От мифа к логике. – М.: Экмо-экспресс, 1999.
2. Алимов Р.М. Центральная Азия: общность интересов. – Ташкент: Шарқ, 2005.-56с.
3. Бзежинский З. Великая шахматная доска господства Америки и её геостратегический императвы. – М.: Международный отношение, 1998.

4. Гейден Г. Критика немецкой геополитики. –М.: Прогресс, 1960.
5. Гумилев Л.И. Древняя Русь и Великая степь. –М.: Прогресс, 1989.
6. Дутин А. Основы Геополитики. –М.: Арутогея, 1997.
7. Жўраев С. ва бошқалар. Халқаро муносабатлар (геосиёсат, дипломатия, ҳавфсизлик). Ўқув қўлланма –Т.: «Академия», 2006.
8. Jo`raev N. Yuksalish.-Toshkent: O`zbekiston, 1995.
9. Жалилов А. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти. Маъruzalar matni. Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия Университети. -Тошкент: 2002.
- 10.Международное Право. –М.: Международные отношения, 1995.
- 11.Мэхен Л.Т. Влияние морской силы на историю. 1660.-1783.:А.ГРАФ, 1991.
- 12.Монтескье Ш.Л. Избранные произведения. – М.: ACT, 1995.
- 13.Mavlonov O., Mahkamova D. Madaniy aloqalar va savdo yo`llari.- Toshkent: Akademiya, 2004.-B.144.
- 14.Murtazayeva R.H. O`zbekiston tarixi. Ma`ruzalar matni. -Toshkent: Universitet, 2000.
- 15.Наратов М. Геополитика. Учебник для вузов. –М.: ЮНИТИ, 1999.
- 16.Otamurotov S., Mamashokirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g`oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
- 17.Рацель Ф. Человечество как жизненное явление на земле. –М.: А.ГРАФ, 1951.
- 18.Сафоев С.С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. “Патент пресс” –Т.: 2005.
- 19.Тараққиёт ва ҳамкорлик йўлларида: Ўзбекистон ташқи сиёсати ва дипломатияси. –Т.:Ўзбекистон, 1993.
- 20.Тихонравов Ю.В. Геополитика. Учебное пособие. –М.: Бизнес школа интел-Синтез, 1998.
- 21.Usmonov Q. va boshqalar. O`zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida.- Toshkent: O`qituvchi, 1996.

- 22.Хантингтон С. Столкновение цивилизаций и переустройство мирового порядка // "Полис", 1994.
- 23.Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. –М.: Полис, 1994.
- 24.Xakimov R. “O’zbekiston va BMT” -Т.: O’zbekiston, 1999.
- 25.Чжен Кун Фу. Геополитика Казахстана. -Алматы: Жеты Жарғы. 1999.
- 26.O’zbekiston tarixi. Ma’ruzalar matni.-Namangan, 2006.
27. O’zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O’zbekiston tarixi. Uchinchi kitob.-Toshkent: Sharq, 2000.

III. Davriy matbuot nashrlari

1. Abdullayev Sh. Qardosh xalqlar uchrashuvi //Xalq so’zi.-1995.-22 noyabr.
2. Джадиев Э. Распечатать богатства: энергоносители и будущее Центральной Азии и Кавказа // Центральная Азия 2010. Перспективы человеческого развития. Обзор Регионального Бюро Европы и СНГ, ПРООН.- Ташкент, 1997. - С.29.
3. Суюмбаев М., Мамытова А. Природные ресурсы как фактор развития Центральной Азии // Центральная Азия и Кавказ.- 1998. - № 1.- С.-35.
4. Элементы. Евразийское обозрение". 1996, №7,-С. 26 –31.

V. Internet materiallari:

1. НАТО и Центральная Азия. <http://www.transcaspian.ru/cgi-bin/web.exe/rus/4644.html>.
2. <http://www.fas.harvard.edu-centasia>
3. http://eeas.europa.eu/central_asia/docs/2010_ca_mtr_en.pdf -B.16
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Мирзиёев Ш.М. нинг Самарқанд шаҳрида ўтган “Марказий Осиё ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги ҳалқаро конференцияда сўзлаган нутқи.president.uz/uz/lists/view/1227.
5. <http://mulohaza.uz/?p=3592>